

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
BITIRUVCHI KURS TALABASI

SHABONOVA GULJAMOL ABDULLO QIZIning

"ABDURAUF FITRAT – O`ZBEK ADABIYOTI TADQIQOTCHISI
(XI-XIII asrlar asosida)"
mavzusidagi

5 120 100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2017-2018-o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent**

Z. Q. AMONOVA

Buxoro – 2018

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani_____A.A.Haydarov

“ _ ” _____2018-yil.

BITIRUVCHI KURS TALABASI
SHABONOVA GULJAMOL ABDULLO QIZIning
"ABDURAUF FITRAT – O`ZBEK ADABIYOTI TADQIQOTCHISI
(XI-XIII asrlar asosida)"
mavzusidagi
5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:	filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z. Q. AMONOVA
Rasmiy hakam:	filologiya fanlari doktori, professor SH. N. AHMEDOVA

Buxoro – 2018

«Ma'qullayman» _____
Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent Z. Q. Amonova
 « » _____ **2017-y.**

«Tasdiqlayman» _____
O'zbek adabiyoti kafedrası
mudiri Sh.N.Ahmedova
 « » _____ **2017-y.**

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Shabonova Guljamolning
"Abdurauf Fitrat – o'zbek adabiyoti tadqiqotchisi (XI-XIII asrlar asosida)"
 mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar
 yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	Sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	Sentabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	Oktabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	Noyabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash	Dekabr		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash	Yanvar		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	Fevral		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	mart aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
BMini rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	May		
BMini himoya qilish		Iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi:

Shabonova Guljamol

Ilmiy rahbar:

Zilola Amonova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan

KO`CHIRMA

29-avgust, 2017-y.

**Qatnashdilar: kafedraning barcha
a`zolari**

K U N T A R T I B I

*Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.*

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Shabonova Guljamolning bitiruv malakaviy ishi mavzusi shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Shabonova Guljamolning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent Zilola Amonova ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

5-may, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Shabonova Guljamolning "**Abdurauf Fitrat – o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi (XI-XIII asrlar asosida)**" bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Shabonova Guljamolning "**Abdurauf Fitrat – o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi (XI-XIII asrlar asosida)**" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari doktori, professor Sh. N. Ahmedova tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

U. To`rayeva

Fakultet ilmiy kengashning 2018- yil - may

bayonnomasi bilan tasdiqlangan

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Shabonova Guljamolning "**Abdurauf Fitrat – o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi (XI-XIII asrlar asosida)**" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	Talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo'yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	Yetarli darajada asoslangan–5b.	yeterli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darajasi	to'la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to'la ishonchli emas–3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q– 3 ball

8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas – 6 ball	Tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	Ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	Referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	Ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMIning tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMIning qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof.Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots.Rajabova M.B. (a'zo)

4. dots.Davronova Sh.G' (a'zo)

5. Bozorova M. Buxoro TI litseyi o'qituvchisi

6. Beganjova D. Buxoro sh. 13-maktab o'qituvchisi

-iyun, 2018-y.

Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Shabonova Guljamolning “Abdurauf Fitrat – o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi (XI-XIII asrlar asosida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

ANNOTATSIYASI

Mazkur bitiruv malakaviy ishi tarkibi quyidagilardan iborat:

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh fasl, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizdan maqsad olim Abdurauf Fitratning o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi sifatida adabiyot rivojida ilmiy izlanishlarini o`rganish, xususan, eski o`zbek adabiyotining nodir namunalari hisoblanmish “Qutadg`u bilig”, “Hibbatul haqoyiq” va tasavvufiy qarashlar bilan sug`orilgan Ahmad Yassaviy ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlari mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotlarning ilmiy va adabiy ahamiyatini xolisona baholash va olimning maqolalarini aniq dalillar asosida tahlil ostiga olish maqsad qilib olingan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati Abdurauf Fitrat ijodi va uning ilmiy tadqiqotlari tahlili bitiruv malakaviy ishi darajasida o`rganilgan ishda olingan ilmiy natijalardan o`zbek adabiyotidan o`quv qo`llanmalari, Oliy o`quv yurti talabalariga “Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti” fanida, o`rta maxsus ta'lim o`quvchilariga adabiyot darslarida Fitrat hayoti va ijodini o`rganishda va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida yordamchi manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda asosiy manba sifatida Fitrat Tanlangan asarlar II jildidagi ilmiy asarlari asosiy manba bo`lib xizmat qildi va tahlil uchun XI-XIII asr mumtoz adabiyoti namunalaridan, o`zbek adabiyotshunosligida olim tadqiqotlari keng tahlil qilingan va unga munosabat bildirilgan maqolalar, asarlari o`rganilgan ilmiy ishlardan foydalanildi.

Abdurauf Fitratning ushbu tadqiqotlari o`zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o`rganish va tahlil etishda debocha vazifasini o`taydi.

Ilmiy rahbar:

Z. Q. Amonova

Talaba:

G. A. Shabonova

БухДУ Филология факультети 5120100 – филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) таълим йўналиши битирувчиси Шабонова Гулжамолнинг “Абдурауф Фитрат – ўзбек адабиёти тадқиқотчиси (XI – XIII асрлар асосида)” мавзусидаги битирув малакавий ишига илмий рахбар

ХУЛОСАСИ

Мустақилликдан сўнг, жадид адабиёти ва унинг вакиллари ижодини ўрганиш ва оммалаштириш борасида жиддий ишлар амалга оширилди. Жумладан, Абдурауф Фитрат ҳаёти ва фаолияти бўйича ҳам бир қанча салмоқли ишлар амалга оширилди. Айтилганлар нуктаи назаридан Шабонова Гулжамолнинг “Абдурауф Фитрат – ўзбек адабиёти тадқиқотчиси (XI – XIII асрлар асосида)” мавзусидаги битирув малакавий иши алоҳида қизиқиш уйғотади. Мазкур иш Кириш, икки боб, беш фасл, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат. Кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, ўрганилиш даражаси имкон қадар кенгроқ ёритилган. Битирув ишида Фитратнинг мумтоз адабиёт соҳасидаги фаолияти, айниқса, “Қутадғу билиг”, “Ҳиббатул ҳақойиқ”, Аҳмад Яссавий ва унинг издошлари ҳақида тадқиқотлари батафсил ёритилган.

Талаба малакавий битирув ишини ёзиш давомида эркин мушоҳада юритишга ҳаракат қилади, иш саҳифаларида унинг Фитрат мақолаларини тўлиқ ўрганган ва таҳлил эта олганлиги яққол кўзга ташланади.

Шабонова Гулжамолнинг таҳлил давомида айрим маромига етмаган нуқталар, такрор жумлалар кўзга ташланади. Аммо бу жузъий камчиликлар ишнинг илмий савиясига путур етказмайди.

Умуман олганда, мазкур малакавий битирув иши шундай ишлар олдига қўйиладиган талабларга жавоб беради, уни ҳимояга тавсия қилиш мумкин.

Илмий рахбар:

ф.ф.н., доцент З. Қ. Амонова

Mavzu: Abdurauf Fitrat – o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi

(XI –XIII asrlar asosida)

Reja:

I. Kirish

Ishning umumiy tavsifi.

II. Asosiy qism

I BOB. Abdurauf Fitrat – mumtoz adabiyotning zarif tadqiqotchisi.

1.1. Abdurauf Fitratning hayot va faoliyat yo`li.

1.2. “Qutadg`u bilig” – Fitrat talqinida.

1.3. “Hibbatul haqoyiq” – Abdurauf Fitrat nigohida.

II BOB. Abdurauf Fitrat tadqiqotlarida XIII asr adabiyotiga munosabat.

2.1. Tasavvuf va Ahmad Yassaviy ijodi haqida.

2.2. “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risida tekshirishlar” maqolasi tahlili.

III. Xulosa

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishga, unga xolisona fikr bildirishga katta imkoniyatlar yaratdi, osori-atika yodgorliklarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni bir yoqlamali yoritish, chegaralash, ma'lum jarayon va ilm-fan arboblarning faoliyati va xizmatini inkor etishdek noto'g'ri g'oyalar va usullardan tozalashga, hurfikrlikka sharoit tug'dirdi. Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o'rganish O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan bir necha bor ta'kidlanganidek, hozirgi milliy ma'naviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini, shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir.

Ming yillik adabiyotimiz tarixida tilimizning bepoyon imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan asarlar benihoya ko'p. Biroq mustabid tuzum davrida milliy istiqlol g'oyalarini tarannum etgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Botu singari yirik so'z san'atkorlarining ijod namunalarini o'rganish imkoniyati yo'q edi. Istiqlol sharofati bu yo'ldagi barcha to'siqlarni bartaraf etdi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: "...mustabidlik zamonida xalqimiz xotirasidan ataylab o'chirilgan mo'tabar insonlarning nomlari birin-ketin tiklanyapti. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosir kabi Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan o'nlab siymolarning ma'naviy meroslari bugun xalqimiz bisotiga qaytmoqda".

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida mamlakatimiz tarixida juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o'zgarishlar ro'y berdi. Madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiya, din, mafkura sohasida bunday o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Ma'rifatchilikdan jadidizm o'sib chiqdiki, u endilikda yangicha ta'lim-tarbiya, yangi usul maktablarini yo'lga qo'yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash, maorif-madaniyatda yangi tartiblarni

o`rnatish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarni qo`yish darajasiga ko`tarildi. Jadidchilik harakati turkiy millatlarning ma`naviy- madaniy ko`tarilishiga turtki bo`ldi. Turkistonda yangi usul maktablari ochilib, ma`rifatparvar, ilg`or pedagoglar bu maktablar uchun turli darsliklar, o`qish kitoblari, qo`llanmalar yarata boshladilar. Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrat, Hamza kabilar bu sohada jonbozlik ko`rsatdilar va bu ishda faol ishtirok etdilar.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev Buxoro viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida: “Oqqan daryo – oqaveradi. Darhaqiqat, o`tmishda qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarga duch kelmasin Buxoroyi sharifning ilm-ma`rifat, madaniyat va san`at daryosi hech qachon to`xtagan emas. Bu ko`hna yurtida tug`ilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, Sadriddin Ayniy singari ko`plab ma`rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma`naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag`ishlab kelmoqda”<sup>1</sup>. Biz mana shunday ulug` allomalarimiz bilan, ularni kamolga yetkazgan ona zaminimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Butun umri davomida ona Vatanni ozod va obod qilish dardi bilan yashagan buyuk qomusiy olim Abdurauf Fitrat XX asrda O`rta Osiyoda yetishib chiqqan ijodkorlar orasida eng mumtozi hisoblanadi. Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyati yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning zamonida adabiyotni jamiyatga xizmat qildirish bilan shug`ullanmagan ijodkorni topish qiyin bo`lsa-da, so`z va ish birligini hech kim u olib chiqqan maqomga ko`tara olgan emas. U adabiyot va madaniyatninggina emas, siyosatning ham tan olingan arboblardan edi.

Sizning e`tiboringizga havola etilayotgan diplom ishimiz Abdurauf Fitratning o`zbek mumtoz adabiyotining zarif tadqiqotchisi sifatidagi yana bir qirrasini namoyon etishga qaratilgan.

¹ Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O`zbekiston”, 2017, -B.141.

Mavzuning dolzarbligi. Abdurauf Fitratning adabiyotshunos va tanqidchi sifatida o'zbek adabiyotidagi xizmatlari beqiyosdir. Buning isbotini uning o'zbek adabiyotshunosligidagi bir qancha tadqiqot va maqolalarida ko'rishimiz mumkin. Fitratning faoliyati singari ijodi ham g'oyat ko'pqirrali. Uning badiiy va ilmiy merosi uni Markaziy Osiyoning buyuk san'atkori va qomusiy hamda jahoniy olim, yirik mutafakkir deyishga to'la asos beradi. Istiqlol sharofati bilan bevosita adib asarlarini nashr etish, o'quvchilarga yetkazish ishlari boshlandi. Fitrat birinchi navbatda, adabiy merosimizni ko'z qorachig'iday asrashda, biz avlodlarga yetkazishda fidoyilik namunalarini ko'rsatdi. Bu fikrimizni eng qadim turkiy adabiyotimiz yodgorligi hisoblanmish "Qutadg'u bilig" asarining topilishidagi jonbozligi isbot qiladi. Olimning "Hibbatul haqoyiq" asariga oid tadqiqotida ham ushbu jonkuyarlikni kuzatamiz. Bu maqola mashhur Adib Ahmad Yugnakiyning asari topilib, sharh va so'zboshilar bilan Istanbulda Najib Osimbek tomonidan nashr qilinganidan so'ng, ushbu asar haqida ma'lumot berish bilan birga, bu nashrning xato hamda kamchiliklarini ko'rsatib adib Ahmadning asari qayta nashr etilishga muhtoj ekanligini ta'kidlash asnosida yozilgan. "Ahmad Yassaviy" maqolasi esa O'rta Osiyoda tasavvufning mohiyatini anglashda, yassaviya tariqati va uning ta'sirini belgilashga doir nodir tadqiqotdir. Yassaviy ijodi va "Devoni hikmat" ning adabiy muhitga ta'siri uning "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" maqolasida atroflicha yoritilgan. Hikmatlarning adabiy qimmati to'g'risida muallif o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. Tadqiqotlarning ilmiy va adabiy ahamiyati bugungi kunga qadar o'z salmog'ini yo'qotgani yo'q. Maqolalardagi olim ilmiy qarashlari bugungi tadqiqotchilarimiz uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Har bir maqolaning yugurik misralari ortidan Fitratning o'tkir va sinchkov nigohini ilg'ash mumkin. Tadqiqotlarda Fitrat shaxsiyatining aniq muhri borki, xuddi shu narsa uning naqadar zakii bilimdon ekanidan dalolat beradi. Olimning maqolarida adabiy merosimizning turli qirralarni, madaniy saviyasini, e'tiqodi va dunyoqarashini o'rganishda, ijtimoiy hayotning muhim jihatlariga uning

munosabatini aniqlashda, ushbu asarlarning adabiy qimmatini yoritishda ham g'oyat ahamiyatlidir. Biz bu merosni muayyan tartibda o'rganish asnosida Fitratning izchil va teran qarashlari haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Erksevarligi, ziyoga intilishi, el-u yurt taqdiri uchun kurashishi Fitratni madaniyatimizning eng yorqin siymolaridan biriga aylantirdi. Uning shuhratini qator Sharq va G'arb mamlakatlariga tanitdi. Biroq ayni shu harakatlari tufayli Fitrat zamonasiga sig'madi. Fitrat ijodi nohaq tanqidlarga uchradi va bu holat 1937-yilda uning otilganidan keyin ham davom etdi. Uni ham xalqimizning ko'pgina asl farzandlari kabi avval "millatchi" deb tahqirlashdi, "xalq dushmani"ga chiqarishdi. Uning asarlarini o'qishni, hatto nomini tilga olishni taqiqladilar. Fitratni tarix sahifalaridan chiqarib tashlamoqchi bo'ldilar. Shaxsga sig'inish oqibatlari tugatilgandan so'ng ham bu munosabat o'zgarmay turdi. Qizig'i shundaki, adibning "Qiyomat" asari ateistik talqin qilinib, Fitrat nomi yuraklardan sug'urib olingan kommunistik yakkahokimchilik zamonlarida ham nashr qilindi va uzoq yillar sho'ro mafkurasiga xizmat ettirildi. Lekin nomininig tilga olinishi ham ko'pgina firqa amaldorlarini qattiq bezovta qila boshladi. Holbuki, ularning aksariyatida Fitrat asarlari tanqid qilish uchungina tilga olinar, baholarda eski kondepdiya hukmronlik qilar edi.

Faqat 70-yillarning o'rtalariga kelib, Fitrat hayoti va ijodining yangicha talqini ko'zga tashlanadi. E.Karimovning "O'zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti" kitobi bu boradagi jiddiy qadamlardan biri bo'ldi. 1983-yilda Ahmad Aliyev "Adabiy meros va zamonaviylik" kitobida g'oyat ehtiyotkorlik bilan Fitrat asarlarini adabiyotshunoslik va tanqidchilik qayta ko'rib chiqishi lozimligi haqidagi mulohazani bildirdi. Demokratiya va oshkoralik deb nom olgan 1985-yildan keyingi davrda Fitrat asarlariga bir qadar xolisona yondashish imkoniyati paydo bo'ldi. U.To'ychiyev, M.Yunusov turli munosabat bilan uning asarlariga murojaat etdilar, biroq talqinlarda o'zgarish sezilmadi. 1988-yil 3-iyunda "O'zbekiston va adabiyoti san'ati" gazetasida Izzat Sulton va Salohiddin Mamajonovlarning "Madaniyatimizning ikki siymosi" maqolasi e'lon qilindi.

Mualliflar Fitrat ijodini o`rganish va munosib baholash kechiktirib bo`lmaydigan vazifalardan ekanligiga e`tiborni qaratdilar. Nihoyat, 80-yillarning oxirlaridan Fitrat asarlarini o`rganishda yangi bir bosqich paydo bo`layotgani ko`zga tashlandi.

Mustaqillik yillarida Fitrat ijodini o`rganishga alohida e`tibor qaratildi. Bu davr adabiyotshunosligida olim Hamidulla Boltaboyevning Fitrat ijodini o`rganishdagi xizmatlari tahsinga loyiqdir. Fitratning ijodkorlik mahorati to`g`risida 1996-yil doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. H.Boltaboyevning Fitrat ijodi haqidagi maqolalaridan tashqari uning “So`z qadri” nomli monografiyasi bosilib chiqdi. Kitobda olim Fitratning o`zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini o`rganishdagi faoliyati atroflicha o`rganilgan. Fitratning o`zbek adabiyotshunosligiga qo`shgan hissasi uning “Adabiyot qoidalarini” kitobi tahlili misolida tahlil qilib berilgan.²

Fitratning keng qamrovli, qomusiy merosi birgina adabiyotshunoslar emas, tarixchilar, huquqshunoslar, musiqashunoslar, elshunoslar kabi juda ko`p va xilma-xil soha mutaxassislarini jalb etib kelmoqda. Istiqlol davrida u haqda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalaridan quyidagilarni ko`rsatish mumkin: Adabiyotshunoslik bo`yicha:

H.Boltaboyev. “XX asr o`zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi” (T., 1996 y.);

I.G`aniyev. “Fitrat dramalari poetikasi” (T., 1998 y.);

Falsafa fanlari bo`yicha:

B.Ergashev. Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy g`oyalarining shakllanishi va taraqqiyoti tarixidan. Yosh buxoliklar mafkurasi, T., 1993;

Huquqshunoslik bo`yicha:

D.Toshqo`ziyev. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning birinchi choragi O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy tafakkurining asosiy yo`nalishlari, T., 1995;

Mustaqillik yillarida A.Abdug`afurov, I.Haqqul, N.Xudoyberganov, B. Nazarov, U. Normatov, M. Qo`shjonov, N. Karimov, K. Yo`ldosh, X. Karimov va

² Cho`lponning badiiy olami (to`plam) . Toshkent, Fan, 1994.

o`nlab adabiyotshunoslar borki, ular ham Fitrat ijodini turli yo`nalishlarda tadqiq qilib fitratshunoslikning rivojiga o`z hissalarini qo`shmoqdalar. Bu jarayon ayni kunlarda ham Fitrat hayoti va ijodini atroflicha o`rganish va har tomonlama baholash, xususan, yangi o`zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotidagi o`rnini ilmiy asoslab berish borasida muvaffaqiyatli davom etmoqda deb xulosa chiqarishga asoslar yetarli. Bugun adibning bosilib chiqqan va chiqayotgan kitoblarini bir yerga to`plasa salmoqli meros bo`ladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishimizdan maqsad milliy madaniyatimizning yaratilishi, balki o`zbek xalqining milliy uyg`onishiga ulkan hissa qo`shgan olim Abdurauf Fitratning o`zbek adabiyoti tadqiqotchisi sifatida adabiyot rivojidagi ilmiy izlanishlarini o`rganish, xususan, eski o`zbek adabiyotining nodir namunalari hisoblanmish “Qutadg`u bilig”, “Hibbatul haqoyiq” va tasavvufiy qarashlar bilan sug`orilgan Ahmad Yassaviy ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlari mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Har bir tadqiqot ortida olimning jiddiy izlanishlari mahsulini kuzatamiz. O`zigacha bo`lgan ushbu asarlar to`g`risidagi fikr va mulohazalarni ham izchil o`rganib borganligini e`tirof etish mumkin. Tadqiqotlarning ilmiy va adabiy ahamiyatini xolisona baholash va olimning maqolalarini aniq dalillar asosida tahlil ostiga olish maqsad qilib olingan. Bu maqsadlarni ochib berish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- “Qutadg`u bilig” asari haqidagi Fitratning ilmiy izlanishlarini o`rganish;
- Maqoladagi muallifning asarning yaratilish davri, bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit to`g`risidagi mulohazalarini tadqiq etish;
- Fitrat maqolalaridagi adabiy ta`sir masalalariga e`tiborni qaratish;
- Fitrat tadqiqotlarining adabiy-badiiy qimmatini baholash;
- Ushbu adabiy yodgorliklarimizning dunyo olimlari tomonidan o`rganilishiga doir Fitrat qarashlarini aniqlash va qiyoslash;
- “Hibbatul haqoyiq” asarining mazmun va mundarija nuqtayi nazaridan tahliliga e`tiborni qaratish;

- Fitratning tasavvuf va tasavvuf adabiyoti haqidagi qarashlarini tadqiq qilish;
- Ahmad Yassaviy va “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risidagi tekshirishlar” maqolalarining ilmiy ahamiyatini ochib berish;
- “Devoni hikmat” ning adabiy qimmati va unda tasavvufning darajasi haqidagi Fitrat mulohazalarini izchil yoritish;
- Tadqiqot mavzusi yuzasidan yaratilgan ilmiy ishlarni o`rganish va unga munosabat bildirish;
- Maqolalarni tahlil qilish orqali olimning tadqiqoti ahamiyatini ko`rsatish;

Tadqiqot metodi.

Bitiruv malakaviy ishining har bir tahlil yo`nalishida Abdurauf Fitratning adabiy faoliyatiga ilmiy jihatdan xolis yondashishga harakat qilindi. Maqolalarning qiyosiy-tarixiy va tasavvufiy usullari asosida tahlil amalga oshirildi. Fitrat ijodiga oid ilmiy ishlar va tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti.

Tadqiqot obyekti sifatida Abdurauf Fitratning “Qutadg`u bilig”, “Hibbatul haqoyiq”, “Ahmad Yassaviy” va “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risida tekshirishlar” maqolalari o`rganildi. Ulardagi muallifning qarashlari va fikr-mulohazalari tahlil etildi.

Tadqiqot ishining predmeti.

Fitrat ijodida XI-XIII asr adabiyoti namunalarining yoritilishi, adabiy ta`sir munosabatlari va badiiy an`analari, tasavvufning adabiyotga ta`sirini o`rganish bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

Adabiyotshunosligimiz rivojida Abdurauf Fitratning ilmiy tadqiqotlari debocha vazifasini o`taydi. Xususan, olimning mumtoz adabiyotimizning nodir namunalari hisoblanuvchi “Qutadg`u bilig”, “Hibbatul haqoyiq” va tasavvufiy

mazmunga yo`g`rilgan Ahmad Yassaviy ijodini o`rganish va asarlarini qiyosan tahlil etish borasidagi jonkuyarligini alohida e`tirof etish mumkin. Shu bilan birga Fitratning asar haqidagi qarashlarini ko`rsatish, tadqiqot mavzusi yuzasidan yaratilgan ilmiy ishlarni o`rganish va unga munosabat bildirish, maqolalarni tahlil qilish orqali olimning tadqiqoti ahamiyatini ko`rsatish ustuvor vazifalardandir.

Tadqiqot manbalari

Abdurauf Fitratning ilmiy izlanishlari mahsuli bo`lgan tadqiqotlari, o`zbek adabiyotshunosligida olim tadqiqotlari keng tahlil qilingan va unga munosabat bildirilgan maqolalar, asarlari o`rganilgan ilmiy ishlar manba vazifasini o`tagan.

Tahlil jarayonida Fitrat Tanlangan asarlar II jildidagi ilmiy asarlari asosiy manba bo`lib xizmat qildi va tahlil uchun XI-XIII asr mumtoz adabiyoti namunalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishida Abdurauf Fitrat tadqiqotlari tahlil qilinar ekan, tadqiqot ishimiz Oliy o`quv yurti talabalariga “Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti” fanida, o`rta maxsus ta`lim o`quvchilariga adabiyot darslarida Fitrat hayoti va ijodini o`rganishda va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida yordamchi manba bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. ABDURAUUF FITRAT – MUMTOZ ADABIYOTNING ZARIF TADQIQOTCHISI

1.1. ABDURAUUF FITRATNING HAYOT VA FAOLIYAT YO`LI.

Abdurauf Fitrat – XX asr o`zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyotchisi, o`tkir tilshunos, betakror dramaturg, shoir, jangovar publitsist, noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi edi.

Istanbul dorilfununining professori Mehmed Saroy o`zining bir qator tadqiqotlarida, Fitratni turk olamida Ismoil G`aspirali (1851-1914), Muhammad Fuod Ko`pruluzoda (1890-1966), Ziyo Ko`kalp singari buyuk mutafakkirlar sirasiga mansub, deb hisoblaydi³. U haqda ilk ma`lumot bergan kishi Buxoro amiri Abdulahadxonning saroy xodimlaridan bo`lgan Hoji Ne`matulla Muhtaramdir. U “sarrof Abdul Rauf valadi Abdul Rahim sarrof”ni “Mijmar” taxallusi bilan o`zining “Tazkirat ush-shuarosi” (1910) ga kiritadi va u haqda ma`lumot berib, she`rlaridan birini namuna sifatida keltiradi. Keyinchalik Abduraufning “Fitrat” taxallusi bilan ijod etgani ma`lum. “Fitrat” so`zining ma`nosi tug`ma tabiat, yaralishdir.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda qadim ilm beshiklaridan biri Buxoroda tavallud topgan. Fitratning otasi Abdurahimboy o`qimishli kishi bo`lib, bir zamonlar sarroflik, keyin esa tijorat ishlari bilan mashg`ul bo`lgan. Onasi Nastarbibi (Bibijon, ayrim manbalarda Mustafbib) ham ziyoli, oqila ayol bo`lgan, garchand 40-yillarda ham hayot bo`lgan bo`lsa-da, “xalq dushmani” ning volidasi bo`lganligi sababli xorlik va zorlikda turmush kechirgan va u haqda deyarli ma`lumot saqlanmagan.

Fitrat oilaning to`ng`ich farzandi bo`lib, uning ukasi Abdurahmonning o`tgan asrning 10-yillarida Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo`lib ishlagani

³ Қўлжонов А.Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат//Гулистон.1996№4.Б.30.

ma'lum. Singlisi Mahbuba Rahimova esa oliyjanob inson va iste'dodli shoira bo'lgan. Fitrat boshlang'ich tarbiyani dastlab, o'z davrining eski bir diniy maktablaridan birida, so'ng mashhur Mir Arab madrasasida 18 yoshlariga qadar tahsil ko'rgan. Fitrat o'z maqolalaridan birida shunday deydi: "Men Osiyoning markazlaridan biri bo'lgan Buxoroda 1886-yilda tug'ildim. Birinchi tarbiyani eski usuldagi diniy bir maktabdan oldim. Maktabdan chiqqach, diniy madrasaga kirib dars oldim".⁴

Fors va o'zbek tillarining mukammal bilimdoni bo'lmish Fitrat arab tilini ham chuqur egallab, shaharda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga, ayniqsa, jadidchilik harakatlariga qiziqib qaradi. O'zining aytishicha, avval jadidlar harakatiga qarshilik qilgan, keyin uning mohiyatini anglab yetgach, bu harakatga qo'shilgan, hatto harakatning targ'ibotchilaridan biriga aylangan. Jadidlar maslahati va yordami bilan bir guruh yoshlar, jumladan Fitrat ham Istanbulga o'qishga yuboriladi. U 1909-1913 yillarda Turkiyada tahsil oldi. Turkiyadagi hayoti Fitratning dunyoqarashi, siyosiy ongi va adabiy didini o'zgartirib, o'stirib yubordi. Turkiston xalqi hayotiga Turkiyadagi o'zgarishlar (bu paytda u yerda "Yosh turklar inqilobi" bo'lgan edi) va ilg'or mamlakatlar nuqtayi nazaridan qaray boshladi, diniy xurofotlarni keskin tanqid qilishga maktab-maorifni va Turkistondagi idora usulini isloh etish g'oyasini ilgari surdi. 1909-yilda esa, Buxoroda tashkil etilgan "Tarbiyati atfol" jamiyatining yordami bilan bir necha buxorolik yoshlar bilan birga Turkiyaga borib, Istanbuldagi dorulmualliminda o'qidi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda shu davrda uning o'zi ham Istanbuldagi o'quv yurtlarining birida dars bergan. Fitrat ayni paytda "Buxoro tamimi (umumiy) maorif jamiyati"ni tashkil etib, Turkiyaga o'qishga kelgan vatandoshlarining shu jamiyat atrofida uyushishi va tahsil ko'rishiga rahbarlik qildi. Eng muhimi, safar taassurotlari va yosh usmonlilar harakati ta'sirida Fitrat dunyoqarashida keskin o'zgarish yuz berdi.

⁴ Қўлжонов А.Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат//Гулистон.1996№4.Б.30.

S.Ayniy Fitrat hayotining ana shu davri to'g'risida ushbu ma'lumotni bergan : "... Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan biri hisoblanar edi. Mirzo Abdulvohidning maktabiga ko'p bormagan bo'lsa-da, mudarris Abdulqodir mahdum vositasida "Siroj ul-mustaqim" jurnalini mutolaa qilishi natijasida fikri ancha ochilgan edi. U Istanbul shahariga (o'qishga borish uchun) tayyorgarlik ko'rardi. Bu bahona bilan Buxoro (amirligi) viloyatlariga sayohat qilib, ko'p narsalarni to'pladi va Istanbul safariga tayyor bo'ldi".

1909-yilda "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilg'on munozarasi") asari Istanbulda chop etilgan. Asar forscha yozilgan, uni Hoji Muin o'zbekchaga tarjima qildi va "Turkiston viloyatining gazetasi" da chop etgan. 1913-yilda esa, asar alohida kitob holida chiqqan, unga Behbudiy kirish so'zi yozgan. "Hibs qilish, o'ldirish, sangsor qilish kundagi odatlardan edi, - deb yozadi Fitrat, - u zamonlarda kitob yozishning o'zi "kofir" lik edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta'lim-tarbiya usulini, bir kuy rasmiy idoralarni tanqid qildim. Bu kitob Buxoroda tarqalar edi. Uning noshirlari bo'lg'on Buxoro jadidlarini tahlikaga tushirmaslik uchun amirga qaratib bir so'zboshi yozdim va shuning bilan go'yo tanqidning unga emas, ma'murlariga oid bo'lg'onini ko'rsatdim".

Fitrat adabiyotning hamma janrlarida qalam tebratdi va o'z orzu-armonlari, ezgu tilaklarini targ'ib eta boshladi. 1911-yilda "Sayha" she'riy to'plami, 1912-yilda "Sayyoh hindi" ("Bayonoti sayyohi hindi") bosilib chiqdi. Asarda jahon xalqlari ilg'or mamlakatlar fuqarosi ko'zi bilan Buxoroni, umuman Turkistonning davlat tuzumiga, tartib-qoidasiga, maorifiga nazar tashlab, ulardagi ibratli jihatlarni qo'llab-quvvatlab, illatlarini esa ayovsiz fosh etadi.

Fitrat matbuot orqali ham o'z g'oyalarini targ'ib etishga intilgan. Samarqandda 1917-yilning aprelidan chiqqan boshlagan "Hurriyat" gazetasiga avval

Mardonqul Shomuhhammadzoda, keyin esa 27-28 sonlariga Fitrat muharrirlik qilgan. 1921-yilda Buxoroga kelib davlat ishlarida faol ishtirok etdi. Bir qancha mas'ul lavozimlarda ishlab, Buxoroning rivoji uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi. Fitrat Buxoro, Samarqand, Toshkent universitetlarida dars berdi, O'zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot institutida, Til va adabiyot institutida, O'zbekiston Fanlar qo'mitasida faoliyat yuritdi. Bu yillari u she'rlar, pyesalar bilan birga nihoyatda ko'p va teran ilmiy asarlar yozdi. Ammo Fitratning millatparvarligi Sho'ro hukumati rahbarlariga yoqmas edi. Uni A.Qodiriy, Cho'lpon, Botu, U.Nosirlar bilan birgalikda millatchilikda ayblash tobora avj oldi. 1937-yilda "xalq dushmani" deb ayblanib, hibsga olindi va 1938-yil 4-oktabrda A.Qodiriy, Cho'lponlar bilan birga vahshiylarcha otib tashlangan. Ularni otish haqidagi hukm bir kun keyin, ya'ni 1938-yilning 5-oktabrida chiqqan bo'lishiga qaramasdan ular o'z niyatlarini tezroq amalga oshirishgan. 1957-yilda Sobiq Ittifoq Oliy sudining harbiy kollegiyasi 1938-yil 5-oktabrdagi hukmni bekor qildi va Fitratni aybsiz deb topdi.

Fitrat qarashlari shu davrlarda yaratilgan va XX asr boshi o'zbek publisistikasining, dramachiligining nodir namunalaridan bo'lib qolgan "Rahbari najot" (1915), "Oila"(1916), "Begijon" (1916), "Mavludi Sharif "(1916), "Abo Muslim" kabi asarlarida aks etgan edi. Ayni paytda, Fitrat yangi maktablar uchun yangi darsliklar ham yozdi. "Muxtasar islom tarixi" (Samarqand, 1915), "O'qu" (1917, Boku) kitoblari bunga dalil. Fitrat mazkur asarlarida, bir tomondan, shu yillarda ro'y bergan siyosiy-ijtimoiy masalalarga munosabatini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, musulmon olami uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan yoki muayyan tarixiy davrda saqlanib qoladigan ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarni tushuntirib berdi.

Fitrat nazm maydoniga erta kirib kelgan shoir sifatida ham mashhur. Sadriddin Ayniy "Namunayi adabiyoti tojik" nomli kitobida Fitrat intiboh davridan oldin bir devon bo'lishga arzirli she'rlar yaratgani xususida ma'lumot beradi. Fitratning bizga ma'lum she'rlari, shu jumladan o'zbekchalari birmuncha ozdir.

Mutaxasislarning aniqlashicha, o'zbekcha she'rlari miqdori 20 atrofida. Ilk she'rlarini Buxoro muhiti an'anasiga ko'ra forsha yozgan. XX asrning boshlarida uni "Mijmar" taxallusi bilan ijod qilganligi ma'lum. Mijmar- xushbo'y narsalar solib tutatiladigan cho'g'don. Fitratning dastlabki she'riy to'plami "Sayha" mutaxasislarning ta'kidlashlaricha, 1909-yilda Istanbulda bosilgan. "Sayha" "Fahrang" da "bong, faryodi dahshatangiz, na'ra" deb izohlangan.

A.Sa'diyning "Behbudiy va uning tegrasida yo'g'rilgan shoirlar" nomli maqolasida (Turkiston, 1923) Fitrat she'riy ijodi haqida bir qator fikr-mulohazalar bayon qilingan. Tanqidchi bu davr she'riyatida Fitratning alohida o'rni va uning nazm sohasiga qo'shayotgan xizmatlarini maxsus ta'kidlaydi: "Hozirgi o'zbek she'riyatida Fitratning xizmati uning tili va uslubida ko'rinadi, u she'riyatda arab va fors so'zlariga yo'lni bekitdi. O'zbek she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgilay borib, ko'pgina yosh shoirlarni o'zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni o'zining tili va uslub yog'idan yo'l ko'rsatmakdadir". Garchand Fitrat arab va fors tillarini yaxshi bilsa-da, o'z she'rlarida iloji boricha ularni qo'llamaslikka va sodda o'zbek tilida yozishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Fitrat o'z badiiy ijodi va ilmiy maqolalari orqali barmoq vaznining qulayligi va o'z navbatida, keng imkoniyatlarini targ'ib qildi. 1917-yilda Fitrat o'zi muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" nomi bilan bir turkum she'rlar e'lon qildi. Ularning aksariyati sochma she'rlar Fitratning o'zi aytganidek, mansuralardan iboratdir. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor shoir Hamza tomonidan qo'llangan edi. Hatto, uning bir she'riga "She'r mansur" deb nom qo'yilgan edi. Fitrat ham o'z ijod namunalarida bu an'anani davom ettirdi.

Fitrat o'zbek tilining grammatikasini o'rganish ishini boshlab bergan va shu soha rivojiga katta hissa qo'shgan olimdir. U 1918-yilda Q.Ramazon va Sh.Rahimiy bilan hamkorlikda "Ona tili" darsligini yaratdi. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan "Til va imlo" qurultoyida Fitrat o'zbek tilining sofligini ta'minlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qancha takliflarni o'rta tashladi. U 20-yillarda

o'zbek tili tabiatini o'rganishda davom etib, "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1925), "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba: Nahv" (1926) darsliklarini yaratdi va bu darsliklar 1930-yilga qadar bir necha marta nashr etildi. Fitratning tilshunoslik sohasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning 20-yillarda qadimgi turkiy til, jonli xalq tili va shevalarga tayangan holda, ilmiy-madaniy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha hamda hodisalarni ifodalash uchun o'zbek tilining lug'at xazinasiga yangi so'zlar va atamalarni ko'plab olib kirganligidadir.

Olim "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (1927), "O'zbek adabiyoti namunalari" (1-jild, 1928) tazkiralarni tuzib, milliy adabiy merosimizning eng qadimgi davrdan so'nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalarni to'plab, muayyan tizimga soldi ("Namuna" larning ikkinchi jildi e'lon qilinmay qolgan), "Qutadg'u bilig" singari o'zbek yozma adabiyotining xalq orasida sochilib yotgan yozma yodgorliklarini qo'lga kiritish, o'rganish va chop etishga intildi. O'zbek adabiyoti namoyondalari ijodini ilk bor o'rganib, "Bedil (Bir majlisda)" (1923), "Navoiyning forsiy shoirliği va uning forsiy devoni to'g'risida", "Qutadg'u bilig" (1925), "Ahmad Yassaviy" (1927), "Yassaviy maktabi shoirlari to'grisida tekshirishlar", "Hibbatul haqoyiq", "O'zbek shoiri Turdi" (1928), "XV asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash", "Muhammad Solih", "Fors shoiri Umar Xayyom" (1929), "Mashrab", "Farhodu Shirin" dostoni to'g'risida" (1930) kabi katta ilmiy qimmatga ega risola maqolalar yaratdi. Fitrat bu tadqiqotlari bilan o'zbek adabiyotshunoslik faniga poydevor qo'ydi. "She'r va shoirlik" (1919), "Adabiyot qoidolari" (1926), "San'atning manshai" (1927), "Aruz haqida" (1936) singari maqola va risolalari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos soldi. Shu bilan birga u "O'zbek klassik musiqasining tarixi" ni yaratib, uni 1927-yilda nashr etgan. San'atshunoslik institutida saqlanayotgan shashmaqom notalari ham Fitrat tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan yozib olingan. O'zbek klassik kuylarini, shashmaqomini notaga yozib olishni tashkil etish, butun dunyoga mashhur bo'lgan Buxoro arxitektura yodgorliklarini saqlab qolish, qadimiy qo'lyozmalarni yig'ish,

xalqni savodli qilish, maktablar ochish va ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda Fitratning xizmatlari kattadir. U shaxmat tarixi haqida tadqiqi maqolalar yozgan, hatto yer qurilishining ilmiy jihatlari bilan qiziqqan va yaqindan shug'ullangan keng qamrovli iste'dod ekanligi ma'lum bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Abdurauf Fitrat tavalludining 110 yilligini nishonlash to'g'ridagi" 1996-yil 22-fevralda qabul qilgan qarori ilmiy-adabiy jamoatchilik orasida qizg'in kutib olindi. Ushbu qaror tufayli ulug' adib hayoti va ijodini o'rganish va nashr etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yangicha bosqichga chiqdi. Qisqa vaqt ichida olim va adib tasviri tushirilgan pochta markalari, badiiy portreti va haykali yaratildi; u haqdagi risola va monografiyalar bosilib chiqdi; uning ilmiy adabiy va jamoatchilik faoliyati bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi; dramaturgning bir qancha pyesalari sahnalashtirildi, hujjatli va videofilmlarni yaratishga kirishildi; mamlakatimizning oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tekshirish institutlari va maktablarida, tashkilot va muassasalarida buyuk islohotchi olim, ulkan adabiy siymo Fitratning 110 yillik yubileyiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy anjumanlar, adabiy kechalar, jamoatchilik vakillarining yig'inlari o'tkazildi. Istiqlol sharofati bilan, 1991-yilda Abdulla Qodiriy va Cho'lpon bilan birga Abdurauf Fitratga ham yurtimizning oliy mukofoti – Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. Uning qator ilmiy maqolalari, shuningdek, nasriy, she'riy va dramatik asarlari qaytadan nashr etila boshlandi. 1996-yilda "Chin sevish" va 2000-yilda ikki tomlik keyinchalik besh jildlik tanlangan asarlari chop etildi.

2016-yildan buyon Buxoro davlat universitetida o'tkazilayotgan "Istiqlol va Fitrat" mavzusidagi an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani Fitrat siymosini o'rganishning o'ziga xos ifodasi bo'ldi. Anjumanda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Buxoro osmonida yorqin yulduz bo'lib porlagan serqirra ijod sohibi Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi bilan bog'liq, bugungi kun uchun ham ahamiyatga molik dolzarb masalalar yechimini topmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Fitratning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'afolatdan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlashga qaratilgan edi. U o'zbekning o'zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug'vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg'or madaniy mamlakatlarga yetib olishga chaqirdi. Butun ijodining mohiyatini xalqning qalb ko'zini ochishga va mehnat, yaratish, o'qish-o'rganish, kurashga dav'atdan iborat edi. Fitrat ulug' va betakror ijodkor edi. Bunday favqulodda iste'dod egasi har doim ham dunyoga kelavermaydi, albatta.

1.2. “Qutadg`u bilig” Fitrat talqinida

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asari hozircha bizgacha yetib kelgan turkiy badiiy adabiyot namunalarining eng ko'hnasi hisoblanadi. Asar XI asr Qoraxoniylar saltanatining eng yuksak pog'onaga ko'tarilgan bir davrida yaratilgan. Yusuf Bolasog'un Yettisuv o'lkasidagi Quzo'rda (Bolasog'un) shahrida 1016-1018 yillar orasida dunyoga keladi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o'lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan Qoraxoniylar sulolasi qo'l ostida edi. Bu sulola VI-IX asrlarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligining davomchilari bo'lib, IX asr o'rtalaridan davlatni boshqarib keldilar.⁵ Qoraxoniylar davrida ilm-ma'rifat, madaniyat rivojlanadi, qator ilmiy, falsafiy asarlar yaratiladi. Bu asarlar asosan arab va fors tilida edi. Davlatni idora qilish uslubi, siyosati, qonun-qoidolari, rasm-u odatlarini, axloq mezonlarini o'zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida “Qutadg`u bilig” maydonga keldi. Asarda oddiy xalqdan tortib Qoraxoniylar saltanatining eng oliy hokimi eliggacha bo'lgan oraliqdagi barcha tabaqa va toifalarning axloq-odob, xatti-harakat, muomalamunosabat chegaralari haqida bahs boradi. Muallif asarni milodiy 1069-1070 yillarda yozib tugallagach, uni Tavg'ochxon huzuriga olib boradi. Kitob xonga manzur bo'lganligidan Yusufga “Xos Hojib” lik lavozimini beradi. Yusuf o'z

⁵ “Маънавият юлдузлари(М.Имомназаров)”.Тошкент.1999.-Б.108.

asarini yozgan paytida yoshi ellikdan o'tib, oltmishga yaqinlashayotgani ham asardan anglashiladi:

Tegurdi manga elgi ellik yashim,
(Ellik yoshim menga qo'lini tegizdi);

O'qir altmish emdi manga kel teyu,
(Endi oltmish meni kel, deya chorlayotir.)⁶

Yusuf Xos Hojib hayotning kichik ikir-chikirlaridan tortib yulduz sirlarigacha, oddiy bir inson bilan gaplashishdan to davlat boshqarishning nozik sir- asrorlarigacha, turkiy xalqlarning Alp Er to'ngasi ajamliklarda Afrosiyob nomi bilan atalishigacha, Firdavsiyning Faridun, Zahhok kabi qahramonlaridan tortib Chin va Mochin olimlarining timsollarigacha, Hind rojalaridan tortib, Rum qaysarlarigacha bilgan, hamma sohadan xabardor zakii inson sifatida gavdalanadi.

Ilm olamida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining ikki nusxasi (Qohira, Vena) ma'lum edi. Mana shunday qimmatli asar mavjudligi haqidagi dastlabki xabar XIX asrning birinchi choragida paydo bo'ldi. Bu asarning hijriy 843(1439-milodiy) -yilda Hirotida uyg'ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayl Shams tomonidan ko'chirilgan nusxasi Turkiyaning Tugot shahriga, bu yerdan esa hijriy 879(1474-milodiy) -yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari o'g'li Kadi Ali tomonidan Istanbulga keltirilgan. Uni mashhur tarixchi va sharqshunos olim Jozef Xammer Istanbulda sotib olib, Vena saroy kutubxonasiga keltiradi. 1896-yillar atrofida bu asarning arab yozuvi bilan ko'chirilgan ikkinchi qo'lyozma nusxasi Qohira kutubxonasida topildi. Fitratning sa'y-harakatlari tufayli bu asarning uchinchi qo'lyozma nusxasi Namanganda topildi va shu munosabat bilan "Qutadg'u bilig" maqolasi e'lon qilingan. Fitrat asarning yaratilish davri, bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit haqida tasavvur berish uchun tarix sahifalarini varaqlaydi. Maqola "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1925-yil 2-soni (68-73 betlar) da arab yozuvida e'lon qilingan. Maqolaning hozirgi yozuvga o'girilgan

⁶ "Qutadg'u bilig".(To'rtliklar).Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov.Toshkent.1971.-B.7.

matni Fitrat Tanlangan asarlarining II jildidan o`rin olgan. Fitrat bu maqola bilan cheklanmay, keyinroq birinchilardan bo`lib, o`zining “O`zbek adabiyoti namunalari” (1-jild) majmuasida asardan bir necha parchalar ham e`lon etgan, uni zamonaviy o`zbek tiliga o`girib, tushunarsiz so`zlar uchun izohlar ham yozgan.

Fitratning “Qutadg`u bilig” qo`lyozma nusxasining topilishi bilan bog`liq ma`lumotlar Q.Karimov (“Qutadg`u bilig” asari haqida) va N.Karimov (“Qutadg`u bilig” ning topilishi) tadqiqot va maqolalarida ham keltirilgan. Namanganda “Qutadg`u bilig” qo`lyozmasining uchinchi, arab yozuvida bitilgan nusxasi topilganligi to`g`risidagi xabarni eshitish bilan olim O`zbekiston Davlat nashriyoti raisi Nazirov bilan birga Namangandagi “Nashri maorif” jamiyati bilan uzoq muzokara olib borgan va qo`lyozmani qo`lga kiritgan.<sup>7</sup> Muzokaraga ko`ra, Fitrat kitobni qayta ishlab, uni 200 nusxada nashr etishi va chop etilgan bir necha nusxa bilan qo`lyozmaning aslini “Nashri maorif” jamiyatiga qaytarishi lozim bo`lgan. Fitrat bilan “Nashri maorif” jamiyati o`rtasida tuzilgan bitim rasmiy hujjat qimmatiga ega bo`lib, u saqlash uchun O`zbekiston jumhuriyati Markaziy Ijro Qo`mitasining kotibi Nuriddin Qorievga topshirilgan.

Hodi Zarifning esdaliklariga qaraganda, Fitrat 20-30 yillarda O`zbekistonda topilgan ma`daniyat obidalarini o`rganish va nashr etish ustida qayg`uribgina qolmay, noyob Sharq qo`lyozmalarining chet elga valyutaga sotilib yuborilishiga ham qarshi chiqqan. Sho`ro hukumati iqtisodiy mustaqillikka erishish niyatida turli millat va o`lkalarga tegishli noyob boyliklarni, shu jumladan madaniyat obidalarini xorijiy mamlakatlarga sotganida Fitrat eng nodir qo`lyozmalarni saqlab qolishga harakat qilgan⁸. Balki, shunday yo`l tutmaganida “Qutadg`u bilig” ning Namangan nusxasi ham bugun Parij yoki Londondagi kitob xazinalaridan birida saqlanayotgan bo`lardi. Jahon yozma madaniyatining o`lmas obidolari sirasidan joy olgan “Qutadg`u bilig” dostonining Namangan nusxasi ana shunday mashaqqat

⁷ N.Karimov. “Qutadg`u bilig”ning topilishi “Fan va turmush” jurnali, 1993, 2-son 9-bet

⁸ O`sha manba.-B.11

yo`lini bosib o`tib, bizning davrimizga qadar yetib kelgan. Bu boradagi xizmatlari uchun jonkuyar olimni iftixor bilan tilga olishimiz zarur.

Fitrat “Qutadg`u bilig” bilan tanishib chiqishi bilanoq u haqda maqola e`lon qilib, qo`lyozmaning yozilish tarixi va saqlanish holatiga doir fikr-mulohazalarini bildiradi. Maqolada “Qutadg`u bilig” to`g`risida “Inqilob” jurnalining 9-10 sonlarida A.Sa`diy tomonidan bir maqola yozilganligini va kitobning uchinchi nusxasi topilganligi munosabati bilan asar to`g`risida yangidan to`laroq maqola yozishni munosib ko`rganligini ta`kidlaydi. Abbosiy xalifalar kuchsizlanganidan keyin Bag`dod shahri ilmiy-adabiy markazligini yo`qotganligi, natijada Xuroson, Turkiston, Marv, Nishopur, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda yangi markazlar paydo bo`lganligi, “Qutadg`u bilig” asari yaratilgan Qashqar ham shunday markazlardan biri ekanligi haqidagi ma`lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Fitrat hijriy IV asrning oxirlaridan boshlab Turkiston o`lkasi islom madaniyati ta`siriga berilib, Sharqiy Turkistondagi Qoraxoniylar hukumati atrofida islom-Eron ta`sirlari ostida, “saroy kishilari”— havas sinfi vujudga kelganligini, mana shu sinfningshakilinishiga xizmat qilmoq ularni birlashtirib, tartib o`rnatmoq uchun islom-Eron adabiyotining ta`siri ostida yangi bir adabiyot shakllanganini aytadi. Mana shu adabiyotning kitob shaklida yozilgan eng qadimgi namunasi sifatida “Qutadg`u bilig” asarini ko`rsatadi. Asarning yozilish tizimi “ikkilik” (masnaviy) shaklida bo`lib, vazni esa mashhur Eron shoiri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari vaznidadir. Albatta, har qanday adabiyot yondosh millatlar adabiyotidan ta`sirlanadi. Bu adabiyotshunoslikda “adabiy ta`sir” deb atalishi barchamizga ma`lum. Fitratning kuzatishicha, xuddi shu adabiy ta`sir bu qadimiy asarga mos. Muallifning Firdavsiy “Shohnoma”sini ko`rganligini so`zlaridan anglashishini quyidagicha ifodalaydi: “Bu eski turk shoiri turklar uchun juda qiyin bo`lg`an bir vaznda juda muvaffaq bo`lib yozg`an. Bir ko`p olimlarning aytg`onlarig`a ishonib, men ham bu kitobning vaznida ancha kamchiliklar, to`lmag`an o`runlar bor, deb ishong`an edim. Bu kun esa bu fikrda emasman. Vazn juda tuzuk chiqqan, ba`zi joylaridan “Shohnoma” ning hidi kelib turadir. Biroq

vaznni to'ldirmoq uchun so'z orasida hech kerak bo'lmag'an holda – “ko'r”, “ul” so'zlarini tez-tez aytib turadirkim, shoirni bunga, albatta, ma'zur ko'rishimiz kerakdir. Buning tasdig'i sifatida shoir o'z asarida Afrosiyob, Faridun, Zahhok kabi Firdavsiyning qahramonlarini tilga olganini aytish mumkin”.

“Qutadg'u bilig” aruzning mutaqoribi musammani solim va undan far'iy (hosila) bo'lgan mutaqoribi musammani mahzuf bahrida yozilgan. Adabiyotshunoslar asarning adabiy qimmatini haqida turli fikrda bo'lishgan, Fitratning ushbu so'zlari ham tahsinga loyiqdir: “Qutadg'u bilig” ni san'atli bir she'r majmuasi emas, balki manzum bir axloqiy, idoriy kitobdir”. Bunda inson sifatlaridan adolat, davlat, aql, qanoatni majoz yo'li bilan to'rt kishi etib ko'rsatib, “mana shul to'rt majoziy kishilarni shoir bir-biriga ko'rushtirib, so'ylashtiradi. Aytmak istagani so'zlarni, bermak istagani nasihatlarini shularning tilidan aytib eshittiradir. Berilaturgan nasihatlarini xoqong'a vazir, elchi, kotib, xazinachi, qopqachi (eshik og'asi, darbon), bo'laturg'an kishilarning qanday bo'lishlari; shoirlar, sayyidlar, olimlar, bo'lduchilar (“bo'ldu”boltasimon urush quroli. Demak, jangchi ma'nosida qo'llangan), sun'uchilar (“sun”- ish, hunar, hunarmandlar), qurishchilar (quruvchilar), bilan xoqonning qanday munosabat qilishi, so'zlamak shartlari, dunyoning foniylig'i davlatning vafosizlig'i to'g'riklarida uzun, juda uzun qilib so'zlamakdan iboratdir”. Dehqonlar, hunarmand, chorvadorlarni jamiyatning moddiy ne'matini yaratuvchi bunyodkor kishilar toifasi sifatida alohida ta'riflagan, ularning hayoti, odatlari, odob-axloqlari to'g'risida nozik fikrlarni bildirgan. Firdavsiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrav an'analarini davom ettirgan.

Shu o'rinda Fitrat asarning nomlanishiga ham alohida to'xtalib o'tib, kitobni uyg'ur yozuvida o'qigan mustashriq Radlovning asar nomini “Qutadg'u bilig” deb yanglish o'qiganligini, bu kunda ham shu nom bilan Ovrupa olimlari orasida mashhurligini aytadi: “Biroq bu o'qulish yanglishdir. Ham Misrdagi nusxada, ham bizning qo'limizdag'i nusxada kitobning oti “Qutadg'u bilig” shaklida yozilgan:

“qut”- “baxt”; “qutadg`u”, qutayg`u -“baxtliklanish”; “bilik” -“bilim” bo`lub, “Qutadg`u bilig” ning ma`nosi “Baxtliklanish bilimi” bo`ladir”. Maqolada “Qutadg`u bilig” kitobining dastlab topilgan ikki nusxasi, ularni dunyo olimlari tomonidan o`qish, o`rganish tajribalari, Farg`ona nusxasiga o`xshash va farqli tomonlari xususida ham ta`kidlab o`tilgan.

Fitrat “Qutadg`u bilig” nusxalarining sochim boshlang`ich (nasr bilan yozilgan muqaddima), undan so`ng kitobdagi boblarning ko`rsatkichi –fihrist (mundarija, jadval. Bu yerda matn uchun kalit, uning izohlari ma`nosida), so`ng nazm qismi borligini aytib, ushbu nusxaning esa 171 bayti yetishmasligi (tugal “Qutadg`u bilig” da 6500 bayt borligi yoziladi, ushbu nusxaning nazm qismi esa 6329 baytdan iboratdir.) bilan birga, u “yomon baxtsizlikka ham uchragan”, ya`ni qo`lyozma sahifalari titilib ketganidan so`ng bir-biriga betartib tikilgan. “Sochim-boshlang`ich” ning ko`braki tushgan”, fihrist qismida kitobning oltmish yetti bobi ko`rsatilgan, beshinchi bobning esa, nomi tushib qolgan.

“Sochim-boshlang`ich” ning kitob muallifi tomonidan emas, boshqa bir kishi tomonidan yozilganligini Ovrupa olimlari ham ta`kidlab, bu o`rinda Fitrat qo`lidagi nusxaning “fihrist” qismi ham kitob egasi tomonidan yozilmaganligini aytadi. Chunki “fihrist”da ko`rsatilgan bob nomlari bilan matndagi bob nomlari orasida ancha ayirma borligini ko`rsatgan olim: “kitobning ichida Xudoni, Payg`ambarni, sahobalarni, Qora Bug`roxonni maxtab yozilgan to`rt bobning ismlari “fihrist”da ko`rsatilmaydir”- deydi. Undan keyin:

“Fihrist”da

Matnda:

Yarda dor nekutik kirokin oyur:

Qabug` ishlar orti kutk kirokin oyur,

Xazinador nekutik kirokin oyur:

Iginchi nekutik kirokin oyur,

Sharobdor nekutik kirokin oyur:

Idishchi bshi nekutik kirokin oyur,

(F) Qaroam birla suhbat so`zi,

Raiyatlar birla suhbat so`zi,

deb yozilgan.

Matnda “(F) Qaroam birla suhbat so`zi” degan bobdan keyin sayyidlar, olimlar, tush yurg`uvchilar (tush ta`birini ko`ruvchi munajjimlar), sanqichilar, ekinchilar (dehqonlar) va boshqalar bilan aralashmoq to`g`risida 13 bob yozilgan bo`lib, “fihris”da bularning birortasi ham yozilmagan. Bu ayirmani esa Fitrat “fihris” ning ham boshqa kishi tomonidan yozilganligining isboti sifatida ko`rsatadi. Yusuf Xos Hojibning mazkur asarida matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, mantiq, siyosat, tibbiyot, tush ta`birini aytish, xullas, o`sha zamonning barcha bilimlariga doir fikrlarni uchratish mumkin.

Olimning aniqlashicha, “Qutadg`u bilig” masnaviy (ikkilik tizim) shaklida yozilgan bo`lsa ham unda bir qancha to`rtliklar (ruboiylar) bo`lib, bu to`rtliklar ham “Shohnoma” vaznida bo`lib, qofiyalanishi Eron shoirlari orasida mashhur bo`lgan ruboiylar tartibidadir. Fitrat qo`lidagi nusxada ruboiylarga alohida e`tibor qaratilib, oltin suvi bilan yozilganligini va nusxada 180 ta ruboiy borligini aytib o`tadi. Bundan tashqari ruboiylar keltirilib, so`ngida “endi shoir so`zini tingla” deb asarning masnaviy shaklidagi qismi davom etib ketgani, bir ruboiy vazni asardagi vazn bilan nomunosib kelishi kabi chalkash masalalarga duch keladi. Sharq adabiyotining bilimdoni bu masalani shunday hal qiladi: “Yusuf Xos Hojib zamonida Xitoy adabiyotida, turk xalq adabiyotida, fors adabiyotida hikmatli so`zlar ko`b bo`lg`on. Shoir shunlardan foydalangan, shunlarni o`z kitobining vazn ham uslubig`a aylantirib, kitobini shoir tomonidan “bu kitobni Chin -Mochin hakimlarining maslahatlari, she`rlari bilan bezadim”, degan so`zini shu fikrimiz bilan izoh etishimiz mumkindir”.

Fitrat tomonidan ushbu nusxaning qachon yozilgani to`g`risida aniq ma`lumot aytilmagan bo`lsa-da, biroq kitobning “suls” xati (eski arab yozuvlaridan biri. U ta`liq xatidan ham burunroq mavjud bo`lib, unda harakatlar ifodasi bo`lmagan) bilan yozilganligini, “suls” xatining esa islom dunyosida “ta`liq” xatidan ham oldinroq amalda bo`lganini ko`zda tutib, bu nusxaning besh asr burun, ya`ni uyg`urcha nusxadan oldinroq yoki bir paytda yozilganini taxmin qiladi.

Xullas, Fitratning “Qutadg`u bilig” haqidagi tadqiqot dastlabki ishlardan bo`lishiga qaramasdan ko`pgina muhim masalalarni hal qilgan:

- Asarning yaratilish davri, bu davrdagi siyosiy hayot, ijtimoiy-adabiy muhit tahlil doirasiga tortilgan;
- “Qutadg`u bilig” kitobi asnosida yondosh millatlarning adabiy ta’sir masalalari ustida ham to`xtalinadi;
- Asarning adabiy-badiiy qimmatini mohirona baholanadi;
- Yusuf Xos Hojib ijodiga turk, eron, xitoy xalqlarining yillar davomida sayqallangan tafakkur mahsullarining in’ikosi haqidagi kuzatishlar beriladi.

1.3. “Hibbatul haqoyiq” – Abdurauf Fitrat nigohida

Qadimgi turkiy hamda eski turkiy til davrlarida olamshumul yozma manbalar bitilgan, bir qator yozma manbalar runik yozuvi bilan toshlarga o`yib yozilgan, ikkinchi bir guruh yozma obidalar runik hamda qadimgi uyg`ur xati bilan maxsus tayyorlangan “pergament”-kiyik terilariga bitilgan. Shuningdek, eski turkiy til davriga oid yozma yodgorliklar arab hamda qadimgi uyg`ur yozuvida ham yozilgan. XII- XIII asrda Adib Ahmad Yugnakiy tomonidan ijod qilingan “Hibbatul haqoyiq” (“Haqiqatlar sovg`asi”) yozma yodgorligi ham eski turkiy til davriga mansub asardir, eski o`zbek tilining shakllanishida muhim rol o`ynagan yozma manbalardan biri hisoblanadi. “Hibbatul haqoyiq” yozma manbasining beshta nusxasi saqlanib qolgan, bu yozma manbaning uchta nusxasi deyarli to`la saqlanib qolgan, ikkita nusxasi ayrim parchalardan iborat. “Hibbatul haqoyiq” yozma manbasining to`liq nusxalaridan biri Hirotda, XV asrda qadimgi uyg`ur yozuvi asosida ko`chirilgan, asarning ikkinchi to`liq nusxasi 1480-yilda Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan arab yozuvida ko`chirilgan. Bu yozma manbaning arab yozuvi bilan ko`chirilgan uchinchi nusxasi XV asr boshlariga mansub. “Hibbatul haqoyiq” ning asosiy nusxalari Turkiya kutubxonalarida, ayrim parchadan iborat bir nusxasi Berlinda saqlanmoqda. Asar 256 baytdan (512 misra)

iborat, gʻazal va toʻrtlik sheʼr shakllarida yozilgan. “Hibbatul haqoyiq” Turkiyada (1915-1916, 1951 yillarda), Toshkentda (1971-1972 yillarda), Pekinda (1980-yilda), Olmaotada (1984-yilda) nashr qilindi.

Fitrat keyinroq “Oʻzbek adabiyoti namunalari” majmuasiga Ahmad Yugnakiyning asarlaridan ham namunalar kiritgan. Maqola dastlab “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnalining 1928-yil 10-sonida (41-46 bet) eʼlon qilingan. Qayta nashri 1997-yilda amalga oshirilgan va “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” haftanomasi (1997-yil 13-iyun) da chop etilgan. Kitob asl matnda ham, olim tomonidan “Hibbatul haqoyiq” deb oʻqilgan, maqola ham shunday nomlangan.

Fitrat kitobni eng qadimgi yozma yodgorliklarimiz qatorida (“Qutadgʻu bilig” dan keyin ikkinchi deb) koʻrsatadi: “Oʻrta Osiyo adabiyotining musulmonlikdan temuriylar (XV asr) gacha boʻlgʻan davrigʻa oid namunalar juda oz. Bu namunalarning eng burungʻisi milodiy 1069-1070 yillarda yozilgʻan “Qutadgʻu bilig” kitobidir. Ondan keyin qatorlanib “Hibbat ul-haqoyiq”, “Abo Muslim”⁹ (mashhur ixtilochi Abu Muslim Xurosoniy haqidagi xalq qissasi nazarda tutilgan milodiy -1155), yana shu asrning yemishi boʻlgʻan Yassaviy hikmatlari, Boqirgʻon hikmatlari, milodiy 1233 da Ali otli bir kishi tomonidan yozilgʻan “Yusuf Zulayho”¹⁰ kitobi (bu dostonning Fitrat nazarda tutayotgan nusxasi adabiyotshunoslikda Qul Ali nomi bilan tanilgan adibga nisbat beriladi), eng soʻngra 1310-da yaralgʻan “Qisas ul-anbiyo”¹¹ (Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziy asari, milodiy 1310-yilda yozib tugallangan) kitobi keladir. Fitrat mana shu besh -olti asardan boshqa yaxshi asarning maydonga chiqmaganligini eʼtirof etib, “shu qator asarlarning ikkinchisi boʻlgʻan “Hibbatul haqoyiq” bilan oʻquvchilarni tanishtirmoqchi”¹² boʻladi. Shuningdek, olim maqolada kitobning

⁹ Xalq kitoblari. Abo Muslim jangnomasi. T., “Yozuvchi”, 1992.

¹⁰ H.SH.Xisamov. Poema. “Qissayi Yusuf”. 1979.

¹¹ Н.Б. Рабғузий, Қисаси Рабғузий .1-2 китоб, Т., “Ёзувчи”, 1990.

¹² Фитрат А. Танланган асарлар II жилд. Т., “Маънавият”, 2000.

qo'lyozma nusxalari va ularni ilm ahliga tanishtirgan olimlar faoliyatiga ham e'tibor qaratadi, Istanbuldagi "Ayo so'fiya" kutubxonasidan topilib, maydonga chiqarilgan bu kitob uyg'ur harflari bilan yozilgan va har so'zning ostida arab harflari bilan qanday o'qilishi ham ko'rsatilgan. Kotibi Abdurazzoq Baxshi tomonidan 1334-yilda ko'chirilgan. Najim Osimbek esa, Fitratning aniqlashicha, "kitobning xatinda bo'lg'an arabcha yozuvlar bilangina qolmag'an, uyg'ur yozuvini yangidan o'qug'an, tarjima qilg'an, lug'atlarini izoh qilg'an. Kitobning sarfiy yoqlarini (grammatik jihatlarini) izoh qilaturg'an bir ilova, so'zlarini izoh qilaturg'an bir lug'atcha qo'shg'an. Matnning o'zini ham aynan ayricha bostirg'an". Najim Osimbek kitobning boshida bir muqaddima yozib, unda uyg'ur yozuvining "Ovropada boshlab qanday o'qulg'ani" haqida batafsil ma'lumot bergandan keyin asar to'g'risida "kitobiyat ma'lumoti beradir", qayerda, qachon yozilgani haqida esa matnning o'zida ma'lumot uchramaydi. Faqatgina kitobning boshida "hamd", "na't" dan so'ng, muallif "o'zining podshohini maxtaydir", undan keyin asarning yozilish sababini ko'rsatgan bo'limda "Dod Sipohsolorbek uchun bu kitob", "chiqartim ochunda oti qolsun teb" deb hukmdorining "Dod Sipohsolorbek" ekanligini bildiradi:

Dod Sipohsolorbek uchun bu kitob,
Chiqartim ochunda oti qolsu(n) teb.

Kitobimni ko'rgan, eshitgan kishi,
Shohimg'a duo birla yodqilsu (n) teb.

Adib uning "qashqarcha til" bilan yozilganligini ta'kidlaydi:

Tamomi erur qashqariy til bila,
Ayitmish adib riqqadi dil bila.

Agar bilsa qashqar tilin har kishi,
Bilur ul adibning nekim aymishi.

Umuman asarning yozilish tarixi, asar muallifi Adib Ahmadning hayot yo'li xususidagi izlanishlar maqolaning katta qismini tashkil etadi.

1995-yilda “O`zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida “Adib Ahmad qachon yashagan?” degan masala yuzaga chiqdi. Bu haqda bir necha maqola ham e’lon qilingan. Maqola mualliflari bir ovozdan Adib Ahmadning VIII asrda yashaganini isbot qilishga urinadilar. Masalani birinchilardan bo’lib ko’targan M.Imomnazarov asosan Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” kitobida keltirilgan (Adib Ahmad Imomi A’zamning shogirdi bo’lgani haqidagi) ma’lumotga tayanadi. Ergash Umarov esa tilshunoslarga ma’lum dalillar bilan “Hibat ul-haqoyiq” tilining ham VIII asrga oidligi haqida aytadi. Fitrat maqolasida bu masalani ham hal qilish uchun Navoiy asaridan tashqari, hijriy 951-yilda yozilgan “ Tazkiratul avliyo ” (Abdulhasan Muhammad Boqir binni Muhammad Ali tomonidan yozilgan), O`rta Osiyo fors shoirlardan Sayif Isfarangiyning she’riy devoniga, “Mujam ul- buldon” asariga va Juvayniy nomli muallifning ma’lumotlariga suyanan. Olim “Adib Ahmaddan xabar beruvchi yana bir manba sifatida Alisher Navoiyning asarlarini keltiradi: “Navoiyning “maktuboti” (“Munshaot”) da Mirzo Badiuzzamonga yozilg`an bir maktub bor. Otasi Husayn Boyqaroga isyon qilgan Badiuzzamon ismig`a Navoiy tomonidan yozilg`an uzun bir nasihatnomadan iborat bo’lg`an bu maktubda Adib Ahmadning tubandagi to`rtligi bor:

Otadin xato kelsa ko`rma xato

Savobbil xato qilsa dag`i ota

Seni yuz balodin qutqarg`ay xudo,

Otaning xatosin bilgil savob”.

“Nasoyimul muhabbat” asarida uning Bag`dod shahridan to`rt yig`och yiroqda turg`anini, Imomi A`zamning eng yaxshi shogirdlaridan ekanini” aytadi. Navoiy asaridagi bu ma’lumotni “afsonaviy xabar” deb baholaydi (Tasavvuf tadqiqotchisi I.Haqqul ushbu xarakterdagi ma’lumotlarning tasavvufiy ma’nosi borligi haqida ma’lumot beradiki, bu narsa Fitrat ta’birida asos borligini to’la isbotlaydi). Holbuki, Imom A’zamning hijriy 150-yilda o’lgani ma’lum . “Hibat ul-haqoyiq” ning hijriy ikkinchi asrda (“Qutadg`u bilig” bilan “Devoni lug`at”dan

uch asr burun) yozilg`anini qabul etishga imkon yo`qdir. “Hibat ul-haqoyiq” ning tili, uslubi, uning “Qutadg`u bilig” dan bir-ikki asr so`ngra yozilg`anin ko`rsatmakdadir”, - deb yozadi bu haqda. Najim Osimbek va professor Ko`prulizoda ham asarning oltinchi asr asari ekanini qabul qilish tarafida bo`lgan.

Ushbu masalani hal qilish uchun Fitrat ikki narsani: birinchidan, asar bag`ishlangan Dod Sipohsolorbek shaxsi haqida ishonchli ma`lumot topishni; ikkinchidan, Ahmad Yugnakiy yashagan Yugnak shahrining joylashish o`rnini aniqlashni, bu ikki jihatni o`zaro bog`liqlikda, bir butunlikda ko`rsatishni o`ziga maqsad qilib oladi. Ya`ni, kitob Dod Sipohsolorbekka bag`ishlangan ekan, adib Ahmad yashagan shahar ham u hukmronlik etgan hududga qarashli yoki yaqin bo`lishi kerak, degan mantiqli fikrga asoslanadi. Najib Osimbek kitobning muqaddimasida “Dod Siphsolorbek” ning kim ekanini aniqlashga oid tadqiqotga kirishgan. Saljuqiylardan Sulton Barqiyoruq zamonida (hijriy 5 asrda) Xuroson noibi bo`lgan Dodbek ibni Habashiy- Oltuntoqni, Mahmud G`aznaviyning jiyani bo`lgan Salar G`oziyni, undan keyin hijriy oltinchi asrda yashagan mashhur fors shoiri Rashid Vatvot (mashhur xorazmlik shoir va nazariyotchi olim, to`liq ismi Muhammad Abdujalil Umariy Rashiduddin Vatvot yoki Rashidul Kotib (adabiy taxallusi)dir. Mashhur asarlaridan biri “Hadoyiq us- sehr fi daqoyiq ush-she`r” dir) tomonidan maqtalgan To`g`rul Qilich Asfahsolorbekni ko`rsatadir, shu uchinching “Hibat ul-haqoyiq ”dagi Dod Sipohsolorbek bo`lganiga qat`iy hukm qiladi. Fitratning aniqlashicha, To`g`rul Qilich Asfahsolorbekning unvonida “Dod” so`zining yo`qligi bu ehtimolning asossizligini isbotlaydi, Adib Ahmad tomonidan kitob yozilgan kishining nomi “Dodbek” bo`lmagani kabi “Asfahsolorbek” ham emas, balki uning to`la unvoni “Dod Sipohsolorbek” dir. Olim bu unvonni O`rta Osiyo fors shoirlaridan Sayfi Isfarangining devonidan topganligini va bu shoirning devonida:

Sarir mulku saroy sarvaru masnad dod,

Bar oftob zaminu zamon muborak bod

bayti bilan boshlangan bir tabrik qasidasining ikkinchi bayti:

G`iyos Davlatu din “Dodbek Sipohsolor”,
Kahast arsa iqbol u ftun oboddir.

Yana

Zahi z-guna ro`xsor tu betob otash,
Havoi tu zada dar sham oftob otash

bayti bilan boshlangan chiroyli bir qasidada

G`iyos Davlatu din Dodbek Sipohsolor
Kahast az ni kulkash dar az tarob otash

deyladir. Fitrat bu ikki qasida Sayfi Isfarangi zamonida “G`iyos Davlatu din Dodbek Sipohsolor” unvonli kishi yashaganini bildirib, yana Sayfi Isfarangi devonida “Dodbek” haqida:

- 1) Dodbek mir lashkari turon,
On z-tar domani shude be ob;
- 2) On Dodbek shir ke dar saf jirode,
Chun ohui mushkin ba sahn xush naqs o`ftod

baytlari bilan boshlangan ikki qit’a-hajvni keltiradi. Bu hajvlardagi baytlarda Turon askar boshlig`iga ekanligiga oid ifodalar ko`rilib, ikkinchi qit’ada bo`lgan:

Farg`ona bazirasm u ziru zabar shud,
Dar dide zanbur asl har makiz o`ftod

bayti esa uning Farg`ona hokimi ekanini ko`rsatgan. Fitrat mana shu Sayfi Isfarangi zamonida (hijriy oltinchi asrning oxiri bilan yettinchi asrning boshlarida) yashagan “Dodbek Sipohsolor” ni Adib Ahmadning hukmdori deb ko`rsatish ehtimolini yuqori baholaydi.

Adib Ahmadning tug`ilgan shahri Yugnak xususida, esa olim Najib Osimning Qashg`ar atrofida degan taxminidan ko`ra, eng muhim fikr sifatida professor Ko`prulizodaning : “Adib Ahmadning shahri bo`lgan Yugnak “Mo`jam ul- buldon” da Samarqand atrofida ko`rsatilgan Yugnak-Yuganak qishlog`idan boshqa emas” ligini, holbuki “Yugnak” so`zi ham bizga u qadar notanish emas.

Sulton Muhammad Xorazmshohning Samarqanddan qoraxitoy askarlarini quvib yuborganda “Yuqnoq” shahriga borib, “uning hokimi bilan o`turushib asir olg`ani” Juvayniy asarida borligini keltiradi.

“Mo`jam ul-buldon” asarining muallifi shu “Yug`noq” nomi ostida quyidagi fikrni aytadi: “Yug`noq Turkiston muzofotidan bo`lub, Banokatga tobe hisob qilinadir, unga “yo” bilan “Yog`noq” ham deyiladir”. Fitrat Adib Ahmad yurti bo`lgan Yugnak bilan shu Ug`noq- Yug`noqning ayni bir joy ekanligini ta`kidlaydi.

Olimning kuzatishicha, “Hibbatul haqoyiq” asari milodiy XII –XIII asrlar orasida Farg`onada yashagan bir hukmdorga bag`ishlanib yozilgan, u kitob mundarija e`tibori bilan diniy axloq o`rgatuvchi manzum bir risoladan iboratdir. Kitob musulmon asarlariga o`xshab Allohni, payg`ambarni (Muhammad s.a.v), uning to`rt xalifasi (chahoryor) ni ulug`lash bilan boshlanadi. Bu qismi o`rtacha qasida shaklida bo`lib, undan keyin ikkinchi qasida hukmdor Dod Sipohsolorbekka bag`ishlangan. So`ngra g`azal shaklida yozilgan kichik bir parchada “asarning yozilish sababi” ko`rsatiladi. Ushbu parcha muallifning qisqa va ochiq e`tirofnomasi bo`lib, u dod Sipohsolorbekning nomi dunyoda qolsin deb yozganligini aytadi, uning maqsadi, “kitobini ko`rgan eshitganlardan shohig`a (hukmdorig`a) duo olmoq, “kazinli, kaligli” (kelgan, ketganlar) orasida ining otini nonsuqqa (abadiyat) qoldirmoq bo`lg`an. Tuzuk, u kitobig`a qarag`anlar, o`qug`anlarning foyda olishlarini ham ko`zda tutg`an, shuning uchun kitobini va`zlar bilan bezatg`an”:

Bezadim kitobi mavo`iz masal

Boqig`li, o`qug`li osig` olsuv tep.

Fitrat kitobning oxirida kitob haqida yozilgan “uch taqriz” (kitobga ilova qilingan uch ma`lumotnoma) ning borligini keltiradi, shularning birinchisida:

Tug`a ko`rmas ardi Adibning ko`zi,

Tuzatti bu o`n to`rt bob uzra so`zi.

Alisher Navoiy o`zining “Nasoyimul muhabbat” asarida Adib Ahmad haqida keltirgan ma’lumotlar ham Fitratning fikrlarini tasdiqlaydi : “Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g`arib (ajoyib, qiziqarli) nimalar manquldur (naql qilingan). Derlarki ko`zlari butov (yopiq, bitgan) emishki, aslo zohir ermas emish. Basir (ko`rmaydigan) bo`lub, o`zga basirlardek andoq emas ermishki ko`z bo`lg`ay. Ammo ba`yat ziyrak va zakiy va zoid va muttaqiy (taqvodor, parhezkor) kishi ermish ...haq subhanohu taolo agarchi zohir ko`zin ba`yat yoruq qilondur”. Keyingi taqrizda:

Adibning yari oti Yugnak arur,
Safoliq ajab yer, ko`ngullar yorur.
Otasining oti Mahmudi Yugnakiy
Adib Ahmad o`g`li yo`q ul hech shaki.
Kitobining oti arur “Hibat ul –
Haqoyiq” , iborat arabtin o`shul.

deb Adib Ahmadning “Yugnak” degan joydan ekani, otasining Mahmudi Yugnakiy bo`lgani kitobning “Hibbatul haqoyiq” atalib, qashqar tilida yozilgani xabar beriladi.

Fitrat Adib Ahmadning Dod Sipohsolorbekka axloq o`rgatuvchi diniy bir asar taqdim qilish bilan o`zining “havodor” (xayrixoh) ligini bildirmoq niyatida bo`lganligini yozadi. Kitobdagi qasidalar g`azal shaklida emas, ruboiy (to`rtlik) shaklida davom etgan. Fitratning ta`kidlashicha, bu ruboiylar shakl va uslubcha “Qutadg`u bilig” dagi ruboiylarning xuddi o`zi kabidir. “Hibbatul haqoyiq” asari yozilgan davrda forsiy va turkiy dostonlar uchun umumiy bo`lgan muayyan she`riy shakl (ya`ni, aa, bb,vv usulida qofiyalanuvchi masnaviy shakli) mavjud bo`lmagan. Shu sababdan asarning madhiyaviy kirish qismlari o`sha davr arab adabiyotiga xos bo`lgan qasida janridan ijodiy foydalanib yozilgan. Ammo dostonning asosi qismi va xulosasi qadimiy turkiy og`zaki adabiyotida keng qo`llanilgan to`rtliklar shaklida yaratilgani olimning fikrlarini dalillaydi.

Fitrat maqolada Adib Ahmadning tugʻilgan yurti va asar yozilgan sanani belgilashda muayyan yutuqlarga erishgani koʻrinadi. Turk olimi Najib Osimbekning bu boradagi hamda asar matni xususidagi jiddiy xatolarini koʻrsatib beradi. Ahmad Yugnakiyga “Adib” soʻzining qoʻshib aytilishi ham maʼlum sababga ega. U oʻzini shoir emas, balki adab ilmi namoyondasi deb biladi. Uning dostoni ham turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, maʼnaviy- axloqiy kamolot sirlaridan taʼlim berishga moʻljallangan. Buni undagi bob sarlavhalaridan ham anglash mumkin. Kitobning “tub qismi toʻrt boʻlumgʻa ayrilgʻanini” Fitrat ham eʼtirof etadi: “Birinci bobning unvoni: Birinci nav- ilmning foydasi va bilimsizliqning zarari haqqidadir. Adib Ahmad bu bobni:

Biliktin ayurman soʻzumga ula
deb boshlaydir”.

Maʼlumki, islomning ilk nozil boʻlgan oyatlari “Iqra” (yaʼni, “Oʻqi”) deb boshlanadi va ilmga tashviq etish islom manaviyatining muhim asoslaridan biri ekanligi yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Doston matni orasida paygʻambarimizning “Ilm Chin eli (yaʼni Xitoy) da boʻlsa ham, oʻrganing!” degan hadislari arab tilida keltirilgan va ushbu fikr turkiy toʻrtliklar shaklida sharhlangan. “Bilik bilan saodat yoʻli bilan topilur (saodat yoʻli bilim bilan bilinadi), “bilikli odam mashhur boʻladi”, “bilikdan foydaliroq nima bor?” kabi fikrlarni, ora-orada goʻzal oʻxshatishlar (tashbeh) ni keltiradi: “Bilikli kishi baholi oltin, biliksiz kishi esa, qiymatsiz chaqadir. Odamda bilik suyakda ilik kabidir”.

Baholiq dinor ul biliklik kishi,
Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

Soʻngakka ilikte erangʻa bilik,
Eran koʻrki aql, ul soʻngakning yilik.

Unga koʻra, bilim kishini yuqoriga koʻtaradi, bilimsizlik esa, kishini quyiga choʻktiradi, tushiradir:

“Bilik birla olim yuqor yoʻqoladi,

Biliksizlik erni chuqardi quid”.

Bundan keyingi ikkinchi bob “tilni idora qilish va so`zlashmakning odobi” haqidadir. Bu bob xususida Fitrat muallifning: “Adablarning boshi tilni yaxshi tuta olmoq”, “til bir kun boshga yetadir”, “qachon bir kishida ikki narsa yig`ilib qolsa, u kishiga muruvvat, yaxshilik yo`li beking`an bo`ladir. U ikki narsaning biri sergalik va yolg`onchilik”, kabi bob asosiy mohiyatini ochib beruvchi fikrlarni keltiradi:

Iki nang biriksa bir yerda qoli,
Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

Bir ul yangshir ersa keraksiz so`zin,
Ikinj(i) yolg`on ersa ul erning til.

Sirni saqlash va sirni boshqalarga bildirmaslik ham bobdagi muhim jihatlardan biridir. Adib aytadiki: “ Do`stim deb, ishonib sir aytma, ehtuyot bo`l, garchi qanchalik yaqin, ishonchli do`sting bo`lsa ham. Siring (rozing) o`zingda saqlanib, singib turmagach, u do`stingda saqlanmaydi, buni yaxshi o`ylab ko`r”.

Eshim teb aynanib sir ayma, saqin,
Nejama inonjlik esh ersa yaqin.

Sarib senda rozing singib turmasa,
Sararmu eshingda muni kat saqi.

Kitobning uchinchi bobi dunyoning o`zgarib turishi haqidadir. Fitrat bob xususida muallifning Yassaviy shayxlari fikrlariga suyanganini isboti sifatida quyidagi baytlarni keltiradi:

Bu dunyo so`nggida yugurmak necha,
Xasis nangtin o`tru teb o`zung kucha.

Naluk molg`a muncha ko`ngul bog`lamoq,
Bu mol kelsa erta borur boz kecha.

“Dunyo ketidan yugurganlarni xasis va tuban mol yig`ish uchun charchaganlari (ga) qayg`uradir. Bu qadar mol yig`ib nima qilasiz, ertalab kelgan mol kechasi qo`lingizdan ketadir!”, - deb izohlaydi.

Necha yer bor edi sig`ishmaz eri,
Eri bardi, qoldi qurug` tek yeri.

Necha dono erdi nesha faylasuf,
Qani bu kun anlarmigindi biri.

“Qancha obod yerlar bor edi, xalqi sig`ishmas edi, xalqi yo`q bo`ldi, joylari bo`sh egasiz qoldi. Qanchadan qancha dono, faylasuflar bor edi endi ularning mingdan biri yo`q”, - deya muallif o`kinchini aytib o`tadi.

Bundan keyin to`rtinchi bob saxovat va baxillik oqibati haqida so`zlanadi. Asarning keyingi qismlari haqida Fitrat: “Shuning bilan kitobningu ikki bobdagi parchalar ham yuqorida ko`rganimiz ruhda nasihatlardan iboratdir. Ondan so`ng asarning tamom bo`lg`anig`a oid bir bo`lumda asar egasi o`zining otini aytib o`tadir”, - degan xulosalarni bildiradi. Shuningdek, asarning vazni xususida to`xtalib o`tib, “Shohnoma” va “Qutadg`u bilig” bilan bir vaznda yozilganligini ta`kidlaydi. Olim asarning “Qutadg`u bilig” bilan solishtirma fikrlarini bildirgach, kitobning bosilishiga e`tiborini qaratadi: “Kitobning bosilishi hijriy 1334 da, ya`ni “Devoni lug`atit turk” ning birinchi, ikkinchi jildlaridan bir yil so`ngra bo`lg`an”. Shundan keyin Fitrat Najib Osimbek tomonidan sharh etilib bosilgan kitobdagi yanglish o`rinlarni, olimning “Devoni lug`atit turk” asariga murojaat qilmaganligidan darak berishini aytib, ushbu yanglish o`rinlarni birma-bir ko`rsatadi.

Xulosa o`rnida ta`kidlash joizki, Abdurauf Fitratning ushbu tadqiqoti Movarounnahr va Xurosonda turkiy elatlar madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilgan mutafakkir Adib Ahmad Yugnakiyning tavalludi va uning mashhur “Hibbatul haqoyiq” asari to`grisida aniq va izchil masalalarni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

II BOB. ABDURAUF FITRAT TADQIQOTLARIDA XIII ASR ADABIYOTIGA MUNOSABAT

2.1. Tasavvuf va Ahmad Yassaviy ijodi haqida

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Tasavvuf uch ma'noni o'z ichiga olgan atamadir:

- a) ma'rifatning nurini so'ndirmaydi;
- b) botin ilmiga oid biror so'zni kalom va sunnatga qarshi ishlatmaydi;
- c) karomatlarni, sirlarni Alloh bilan banda orasidagi xos sirlarni elga bildirmaydi;

Qur'oni karimda tasavvuf kalimasi uchramaydi. Rasuli akram (s.a.v) davrida ham bu so'z deyarli qo'llanmagan. Lekin kunlarini haqiqiy ishq shavqi bilan o'tkazgan, qalb pokligini har narsadan yuqori qo'ygan, buning uchun esa, ko'ngilni g'aflat, jaholat, gumrohlikdan muhofaza qilib, ruhiy qobiliyatlarini kamolga yetkazishga uringan zotlarning yo'liga tasavvuf nomi berilgan.

Tasavvufning tub mohiyati zuhd va taqvo bilan axloqni go'zallashtirish, ruhni sayqallashtirib, tafakkur kuch-quvvati bilan qalbni mosivodan xalos aylab, komillik maqomiga yuksalishdir. Shu ma'noda olim I.Haqqul aytganlaridek, tasavvufni xulqi qalb, hol ilmi desa ham bo'ladi. Uning tili ham "qush tili", "ko'ngil tili" deb ta'riflangan.

Tasavvufning asosiy g'oyasi nafs tarbiyasi, ruh tazkiyasi, go'zal axloqqa yetishish "tajriba" si. Shayx Suhravardiyga ko'ra, "tasavvufning avvali ilm, o'rtasi amal, oxiri ilohiy ishqdir". Ilm maqsadni kashfga yo'naltiradi, amal tolibiga yordamchi bo'ladi, mavhiba esa insonni Ollohga vosil etadi. Shuning uchun butun ijodiyoti mobaynida tasavvuf tarixi, tariqatlari va uning ma'no olamiga alohida e'tibor bergan Alisher Navoiy asarlarini sinchiklab o'rgangandan keyin tasavvufni yuzaki yoki xato anglash, mohiyatiga chuqur yondoshmaslik mumkin emasligiga asosiy bir sabab ham ana shundadir.

Mashhur arab tasavvufshunos olimi Abul A'lo Afifiy tasavvufni "Islomdagi ma'naviy inqilob", - deb baholaydi. Uningcha, "Tasavvuf, faylasuf, kalomchi va faqihlar qo'llagan islomiy qurol va zohiriy tushunchalarga qarshi shiddatli bir inqilobdir. Tasavvuf islomga yangi bir ruh olib kirdi. Bu ruhni to'g'ri anglagan, islomiy ta'lim- tarbiya ruhni ham bexato anglay olganidek, noto'g'ri anglash, uni yangilash yo'lga chorlay bilmaydi".¹³

Turk olimi Sulaymon Ulutog' esa "Tasavvuf islom tushunchasi, jamoasi va islom tarixiga ma'naviy ruh, ma'naviyli va teranlik bag'ishlagan edi, islom dinining asosiy yangiligi tozaligi, jonliligi va hayajon ila ko'ngullardan joy egallashini ta'minlagan ta'limot ham tasavvufdir"¹⁴.

Demak, tasavvufning kelib chiqishini olim I.Haqqul ta'kidlaganlaridek, eski yunon, hind madaniyatidan yoxud fors hurriyatchiligidan izlash g'ayriilmiy yo'lni tanlashdir. Tasavvuf bir qancha murakkabliklar va ziddiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf tariqati va she'riyatining asoschisi sifatida dunyoga mashhur siymodir. Ahmad Yassaviyning she'riy ijodiyoti asrlar mobaynida turkiy xalqlar tomonidan sevib o'qib kelingan. O'zbek adabiyotining taraqqiyotida Ahmad Yassaviy ijodiyotining g'oyaviy-ruhiy ta'siri juda kuchlidir.

Ahmad Yassaviyning tug'ilgan yili ma'lum emas, lekin adabiyotlarda vafoti 1166-1167 yillar deb belgilangan. U Sayramda Shayx Ibrohim xonadonida tug'ilgan. Yetti yoshida otasidan ajralib yetim qolgan. So'ngra Arslonbob nomli shaxsning qo'lida tarbiyalangan. Bu to'g'rida Yassaviy hikmatlarida ma'lumotlar mavjud:

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi,

Har sir ko'rib parda birla bukib yopdi.

Boshqa bir hikmatda bunday so'zlar aytiladi :

¹³ Tasavvuf. Истанбул.1996.-Б.12.

¹⁴ Ҳаққулов И.Тасаввув Тарих,Моҳият ва тадқиқ талаблари//ЎТА №4.2017.-Б.31.

Ishqqa qadam qo`yg`onlar Haq diydorni ko`rarlar,
Musosifat mahsharda haqdin savol so`rarlar.
Sarmast bo`lib vasfida hu zikrini ko`rarlar,
Arslon bobom so`zlarin eshitingiz tabarruk.

O`sha zamonlarda Buxoro islom ilmining Movarounnahrdagi eng nufuzli markazlaridan bo`lgay. Bu yerda Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig`ilishgan. Ahmad Yassaviy ham tahsil uchun Buxoroga keladi . Alisher Navoiy “Nasoyimul muhabbat” da Xoja Yusuf Hamadoniylar haqida yozadi: “... Olim va imomi rabboniy va orifi sohib ...ibtidoda Bag`dodqa bordi va Shayx Abulis`hoq Sheroziy majlisida mulozamat qildi va ishi yuqori bo`ldi va o`z aqronig`a fiqh ilmida va o`zga ilmida, xususan nazar ilmida foiz bo`ldi va Shayx Abul Is`hoq oni kichik yoshlig` ekanida ko`p ulug` poyalig` ashobig`a taqdim qilur erdi va ko`p ulamodin Bag`dod va Isfahon va Samarqandda hadis istmo qildi ”. Abduxoliq G`ijduvoniylarning “Maqomati Yusuf Hamadoniylar” risolasidan anglashilishicha, “Qur`on” ni cheksiz muhabbat bilan tilovat qilish va Muhammad alayhissalom dav`at etgan e`tiqod yo`llaridan yurishda Hamadoniylarning o`z shogirdlariga o`tkazgan ta`siri kuchli bo`lgan. Uning to`rt xalifasidan biri Ahmad Yassaviy bo`lgan. “Xoja Yusufdin so`ngra bu to`rt kishidan har biri irshod va da`vat maqomida ermishlar va muridlar uning xizmatida adab ila mulozim. Chun Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston sori azimat qildi”, - deydi Alisher Navoiy. Ahmad Yassaviy Turkistonga qaytib o`z tariqatiga asos solgach, din va tasavvuf g`oyalari targ`ibi uchun she`r shaklidan ham foydalangan, ya`ni muridlar zikr chog`ida Yassaviy yaratgan hikmatlarni ham yod o`qishgan.

Ahmad Yassaviylarning dunyoqarashi uning “Hikmat” asarida bayon qilingan. Yassaviylarning dunyoga nazari, bizning davr kishilarinikiga nisbatan boshqacha shakllangan. Shoirning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondashishi o`zgacha yo`nalishlarda kechganligi shubhasizdir. U o`z davri farzandi sifatida islom dini ko`rsatmalari va islomiy aqidalarga tayangan. Buni uning o`zi ham e`tirof qilgan. Yassaviy faoliyatining dastlabki yillaridayoq o`z

dunyoqarashini xalq orasida kengroq yoyish maqsadida turkiy qo`shiq'larga yaqin she'rlar ijod qila boshlaydi. Bizga qadar Yassaviydan "Devoni hikmat" nomli she'rlar kitobi saqlanib qolgan. Bu asar hamma zamonlarda, barcha turkiyzabon avlodlarga munosib tuhfa bo`la oldi. Asar insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo`lida fidoiylik, e'tiqodda sobitlik, halollik, poklikni targ`ib-tashviq etdi. Kishilarni asl maqsad – Xudoga erishmoq payida mashaqqat-riyozat chekmoqqa, ma'rifat kasb etmoqqa, islomiy va dunyoviy ahkomlarni egallamoqqa chorladi. Filologiya fanlari doktori Ergash Rustamov "Xo`ja Ahmad Yassaviy masjidi peshtoqiga Hazrati Rasulullohning "Talabul ilmi farizatun ali kulli muslimin va muslimatin" - ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farz", - degan hadisi bitilganini qayd etgan. Bugina emas, Yassaviy hikmatlarida to`g`rilik, mehnatsevarlik, mo`minlarga mehribonlik, insof, muruvvat g`oyalarini ilgari surgan. Ayrim hikmatlarda biz ijtimoiy adolatsizlikka qarshi keskin fikrlarni, dilozor, mardumzor, muftxo`r bo`lmaslikka dav`at etadi. Saksoninchi yillarga qadar Yassaviy ijodi tarkidunyochilik, umidsizlikni targ`ib etadi, deb kamsitib kelindi. Vaholanki, turk dunyosi 1993-yilni "Yassaviy yili" deb e`lon qilgan. "Bu xayrli ishdan murod deydi, - adabiyotshunos H.Boltaboyev, vaqtida e`zozlab ulgurmaganimiz Xoja Ahmad Yassaviy xotirasini abadiylashtirishgina emas, balki ustozlari yaratgan hikmat durdonalarini qayta o`rganishga rag`bat, asrimiz badxohliklariga ko`nikib qolgan qalblarni ilohiy nur bilan tozalash, ruhni chin maskan sari yo`naltirib, Haqqa tobora yaqinlashmoq yo`lida berilgan imkoniyatdir".

"Qur'oni Karim" ning Makkayi munavvarada nozil bo`lgan "Val-Layl" surasida aytiladiki, "Inna alayna lal huda" (12-oyat), ya'ni insonlarni hidoyatga yo`llash yolg`iz bizning zimmamizdadir. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida aytilishicha, "Hech ish o`mas ayru xoliq amridin". Yaratganning o`ziga ibodat qilib, yo`lini ko`rsatmoqqa ("Ayo, g`ofil, umring o`tar seni yeldek") o`zini bag`ishladi.

Anglashimizcha, tasavvufiy ta'limotda ruh chin komillik yo'lida to'rt fasldan o'tadi. "Devoni hikmat" ga o'ziga xos debocha tarzida chop qilingan. "Faqrnoma" da yozilishicha, "Ey darvish, bilgil va ogoh bo'lgilkim, avval kalimayi shariat, ikkinchisi - kalimayi tariqat, uchinchisi - kalimayi ma'rifat, to'rtinchi - kalimayi haqiqatni bilmak kerak. Agar so'fi bo'lib, bu kalimalarni bilmasa, so'fi emas" degan qat'iy hukmdan so'ng bu kalimalarning mazmuni bayon qilingan. "Hikmatlar" da bu haqda:

Barcha ishni komil tutib shariatga,
Boshdan kechib, qadam qo'yub tariqatga,

Jon va dilni mushtoq etib ma'rifatga,
Haqiqatni (ng) asroriga jo'yon bo'lur

deb "to'rt anosir hijobi" dan so'z ochib, shariat talablari bilan ish tutmoqlikni so'fiylikning avvali deb bildi (Tariqatga shariatsiz kirganlarni, Shayton kelib iymonini olur emish"). Tariqatda esa, "Jahriya" ("Yassaviya") ta'limotiga asos solibgina qolmay, "Yassaviya maktabi" deb nom olgan ilk turk tasavvufiy adabiy maktabiga asos soldi. Ma'rifatda "sultoni orifin" unvoniga sazovor bo'lib, "Haqiqatning daryosidan gavhar olgan" ustoz komil sanaladi. Navoiy u zotni "turk piri" deb ("Turk piri kabi olamdin etakni silkiting") e'zozlagan. Osiylar o'z gunohlaridan forig' bo'lish yo'llarini izlaganda Yassaviyni o'qiganlar. Dunyo chigallarida qolganda yana uning purma'no hikmatlaridan ko'mak o'tinganlar.

"Xoja Amad Yassaviy qarashlari mohiyatini anglash uchun, shubhasiz, tasavvuf ta'limoti ruknlariga murojaat qilish lozimdir. Tasavvuf o'zini anglash va shu orqali Allohni sevib tanish va bilish ilmi hisoblanadi. O'z-o'zini anglash o'z nuqsonlarini, aybu-qusurini anglash demakdir. Shunday ekan, tasavvufni insonning o'z vujudi, nafsiga qarshi isyoni, o'z -o'zidan qoniqmaslik noroziligi sifatida talqin etish o'rinlidir", - deydi tasavvuf bilimdoni N.Komilov. Shayxlarning o'z-o'zini mazammat etishi, surunkali riyozatni bo'yniga olib, mahrumliklarga ko'nishi, hech narsa bilan o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan buyuk bir ruhoniy poklik olamiga

intilishi shu bilan izohlanadi. Tasavvuf ahli Iloh ma'rifatini qozonishni inson kamoloti, axloqiy poklanish yo'li, insonni insonligini ochish, uning ruhini shayton changalidan qutqarish chorasi, deb hisoblar edilar. Haq va haqiqat g'oyasi, ruhiy farog'at hissi, tafakkur korxonasi, ijod – yaratish niyatlari ushbu ta'limot bag'rida panoh topib, rivojlangan. Albatta, avju mavjlari, qirralari xilma-xil bu ta'limotning hamma tomonlari Ahmad Yassaviy ijodida aks etgan, deya olmaymiz. Juda chuqur falsafiy tizimlarni Yassaviydan qidirish ham zo'rma -zo'raki sun'iylik bo'ladi. Ahmad Yassaviy asarlari quruq nasihatlar yig'indisi (garchi nasihatdan tanbeh ohangi sezilsa ham) tasavvuf va shariat haqidagi betaraf qarashlar, mulohazalar bayoni ham emas, balki yomonlikka, zulmga qarshi nafrat, ezgulik -xayrni himoya etuvchi zarbali satrlardir. Shuning uchun ham Yassaviyning juda ko'p fikrlari g'azabkor bir ohangda jaranglaydi, shoir dunyoni tark etish, zulmga chidash, ishq-muhabbat, darveshning riyozatu karomati haqida yozar ekan, bularning barchasi, birinchidan, tasavvuf ta'limoti talablaridan kelib chiqishini, ikkinchidan, shoirning ilohsevar va insonsevar qalbi nidolari ekanini esda tutmoq kerak. Shu o'rinda, Ahmad Yassaviy qarashlarining bir jihati, ya'ni tarkidunyochilik aqidasi ustida to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi, "Devoni hikmat" da o'qiymiz:

Ayo do'stlar, pok ishqini qo'lga oldim,
Bu dunyoni dushman tutib yurdim mano.

Lomakonni sayr etibon makon oshtim,
Dunyo -o'qbin yuz ming taloq qo'ydim mano.

Yassaviy nazarida, dunyo mehru muhabbatga arzimagani uchun, uni sevganlar ham baxtli emas, "bu dunyoda lahza forig' bo'lmoq qayda", - deb yozadi alam bilan. Dunyoda oromu osoyishtalik, farog'at yo'q. Inson hamisha tashvish-u g'amda, tashvishlar esa ma'naviyatni yengish g'amidadir. Shuning uchun ham insonning bosh vazifasi- Allohni tanish, Unga intilish bo'lmog'i lozim.

Shu munosat bilan Yassaviy inson va ruh, lohut olami va nosut olami (ya'ni, jismoniy olam), ruhning jism ichra iztiroblari, jismoniy talablar bilan ruhoniyl-manaviy talablar orasidagi ziddiyatlar xususida fikr yuritadi. Inson fojiasi sababini ich-ichidan izlashga undaydi. Ahmad Yassaviy tariqat iztiroblari, aziyat chekish yo'li bilan insonni poklab, nuqsonlardan, noxush fe'l-atvordan xalos etish mumkin, deb o'ylaydi. Tarkidunyo ana shu tadbirning boshidir. Ilohiy ma'naviyatga talpinuvchi, poklik va pokizalikni, haqni sevuvchi har bir orif, mutafakkir shaxsda uzlat va xilvatga ehtiyoj, sog'inch bor. Shunday qilib, tarkidunyochilik oshiq ruhning talabidir:

Dunyo qo'ymay hol ilmini bilsa bo'lmas.

So'fiy- iloh oshig'i, uning ko'nglida Allohdan o'zga narsa bo'lmasligi kerak. "Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy ildizlari to'g'ridan -to'g'ri "Qur'on" g'oyalari va Muhammad payg'ambar hadislariga bog'lanadi", - deb ta'kidlaydi olim Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy uchun "O'n sakkiz ming olamg'a sarvar bo'lg'on Muhammad" payg'ambar ta'limoti elni "g'arib birla yetimga muruvvat chorlashi", "yo'ldan ozg'on gumroh" larga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, "rost yurigan qulini" g'oyatda e'zozlashi, "yolg'onchilar qavmini ummat" ga qo'shmasligi va Allohdan o'zgaga tobe bo'lmaslikka dav'at etishi bilan ahamiyatlidir. Qadimiy turkiy adabiy yodgorliklardan birida shunday deyiladi: "Bilingkim, payg'ambar alayhissalom uch karra aydiki, "Din nasihatdur". Ayturlar, "Yo rasululloh, nasihat ne narsadur?" Aydi: "Musulmonlarga din-u imon yo'lini o'rgatmoqdir, Tangrini bilmakdur...".

Shuni aytish lozimki, "Yassaviyning o'zi oltmish uch yoshga kirguncha oilasi, farzandlari bilan umr kechirgan, bog'bonlik qilgan, kosataroshlik kasbi bilan shug'ullanib, muridlar tarbiyalagan. Biroq o'shanda ham Shayxul mashoyixning qalbida Iloh muhabbati ustun bo'lgan, u dunyoga e'tibor qilmas, nafsni odamni buzadigan narsa deb qaragan", - deb yozadi N.Komilov. Bu e'tiqod unda ota meros bo'lib, Arslonbob va Yusuf Hamadoniy tarbiyasi tufayli yanada kuchaygan. Tarkidunyochilik - bu avliyolar tavbasi, ular mijoziiga bu sut bilan kirgandir.

Avliyolar tarki dunyo qilishni barchadan talab qilgan emaslar, sababi, uzlatnishinlik, zikru samo darvesh “nasibasi” (ulushi). Yassaviy o`zini faqirlar safiga kiritadi va bu bilan faxr etadi. Faqir esa, dunyoning asbobu ahvolidan hech narsaga ega bo`lmagan, hech bir tama-yu da`vosi bo`lmagan kishi, faqirlarning Alloh diydoridan o`zga talablari yo`q. Faqirlikni insoniylik mohiyati deb bilib, g`aniylikni Allohning sifati hisoblaydilar.

Tasavvufdagi barcha yirik tariqatlarda bo`lganidek, “Yassaviy” tariqatining ham o`ziga xos muayyan qoidalari (odobi), bu ta`limotdagi soliklar quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim bo`lgan:

- 1) murid hech kimsani o`z piridan afzal ko`rmasligi , unga doimo taslimiyat izhor qilmog`i lozim;
- 2) murid shunchalik zukko va idrokli bo`lishi kerakki, to o`z shayxining rumuz va ishoralarini mukammal anglay olsin;
- 3) shayxning barcha akvoli (so`zlari) va af`oli (ishlari) ga murid sodiq bo`lib, unga mutlaqo mute va mo`taqid bo`lmog`i lozim;
- 4) murid o`z murshidi (piri) ning barcha topshiriqlarini chustu cholaklik (chaqqonlik) ila sidqidildan bajarib , uni hamisha rozi qilib yurmog`i lozim.
- 5) murid o`z so`ziga sodiq, va`dasiga rosix bo`lib, murshidi ko`nglida hech qanday shubha tug`dirmasligi zarur;
- 6) murid o`z murshidining barcha sir-asrorlaridan ogoh bo`lib, uning ifshosini hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak;
- 7) murid o`z shayxining barcha takliflarini nazarda tutib, uning mushkulotini oson qilmog`i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog`i shart v.b ;

So`zimiz yakunida shuni aytishimiz lozimki, tasavvufiy istilohlarning barchasi Yassaviya tariqatining asosiy asari bo`lmish “Devoni hikmat” da to`liq bayon etilgan. Ahmad Yassaviy asarlari quruq nasihatlar yig`indisi (garchi nasihatdan tanbeh ohangi sezilsa ham) emas, balki yomonlikkka, zulmga qarshi nafrat, ezgulikni himoya etuvchi zarbali satrlardir.

2.2. “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risida tekshirishlar” maqolasi tahlili

II BOB. ABDURAUF FITRAT TADQIQOTLARIDA XIII ASR ADABIYOTIGA MUNOSABAT

2.1. Tasavvuf va Ahmad Yassaviy ijodi haqida

II BOB. ABDURAUF FITRAT TADQIQOTLARIDA XIII ASR ADABIYOTIGA MUNOSABAT

2.1. Tasavvuf va Ahmad Yassaviy ijodi haqida

Abdurauf Fitrat ilk maqolasining muqaddima qismida “O`zbek adabiyoti tarixini yozib turg`onim munosabati bilan Ahmad Yassaviy bilan ancha mashg`ul bo`lishga to`g`ri keldi. Mana shu mashg`uliyatlarning qisqag`ina bir xulosasini “Maorif va o`qitg`uchi” jurnalining o`qug`uvchilariga arz etishni munosib ko`rdim”, - deb yozadi. Olimning ushbu so`zlaridan ham ma`lum bo`ladiki, bu ikki maqola uning bir nech yillik izlanishlari, fikr va mulohazalarining mahsuli bo`lgan.

Fitrat o`z maqolasida “Ahmad Yassaviy to`g`risida matbuotimizda bir-ikki yo`la gaplar bo`lib o`tkan edi”, -deb yozadi. “Bu gaplar” qaysi maqola va tadqiqotlarda o`z aksini topgani barchani birdek qiziqtiradi, albatta. XX asr boshida matbuotda Ahmad Yassaviy haqida bir qancha tadqiqotlar e`lon qilingan. Masalan, rus sharqshunoslari N.Mallitskiy, N.Veselovskiy, S.Mallitskiy, N.Likoshin, A.Semenov, A.Garritskiy, Y.Novitskiy, tatar ziyoli va olimlari Oltiaskar Kalinin, Ahmad Sardor va Abdurahmon Sa`diy kabi olimlarning maqolalari shular jumlasidandir.

Rus olimi N.Veselovskiy Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasini tadqiq etish maqsadida uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya axborotida maqbarani o`rganish, ta`mirlash, me`moriy xususiyatlarini qayd etish, tasvir va chizmalarini olish tajribasidan so`z yuritsa, S.Mallitskiy va A.Semyonov o`z tadqiqotlarida Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va faoliyati va maqbarasi haqida ma`lumot beradilar.

Xususan, A.Semyonov “Rashahot ayn ul-hayot”, “Safinai avliyo”, “Xazinat ul-asfiyo” kabi manbalarga asoslangan holda Ahmad Yassaviy hikmat majmuasining muallifi ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim Yassaviy maqbarasining tarixda harbiy -ma’muriy ahamiyatga ega bo’lganligi, ko’plab mahalliy amaldorlar ulug’pir qabri ziyoratida doim bo’lganliklarini qayd etadi. Xullas, ikkala muallif ham Yassaviy mavzeyining tarixiy-me’moriy jihatlariga ko’proq e’tibor qaratadilar. O.Kalinin XV asrga oid forsha bir manbaga tayangan holda Ahmad Yassaviyning hayot yo’li, ilm tahsili, tariqat faoliyati, sermazmun va mo’jizaviy hikmatlar aytganligi, ma’naviy darajasi va ahamiyati, jumladan “turk valiylarining otasi” degan sharaflı nomga erishganligi, bir qancha iste’dodli shogirdlar yetishtirgani, ulardan biri Sulaymon ota bo’lib, uning darveshlikka oid asar yozib qoldirganligini aytib o’tadi. Boshqa bir rus olimi Y.Novitskiy esa “Xoja Axmed Yasavi” nomli maqolasida Xoja Ahmadning hayot sahifalari, otasi Ibrohim ota bilan munosabatlari, ba’zi karomatlari, Yassi (Turkiston) shahrining Ahmad Yassaviy tomonidan bunyod etilishi haqida so’z yuritir ekan, Piri Turkiston bilan bog’liq ayrim rivoyatlarni keltiradi. Jumladan, Yo’lbarsxon va raiyatining Xoja Ahmadga murid bo’lishlari, Amir Temurning Ahmad Yassaviyga ko’rsatgan chuqur ehtiromi bularga misol bo’la oladi.

Shuningdek, rus sharqshunoslari Ahmad Yassaviy ijodiy merosini tadqiq etish bilan kifoyalanmay, balki ularni o’z tillariga tarjima qilib e’lon ham qilganlar. Jumladan, N.Likoshinning “Turkistonda o’tgan yarim hayotim” nomli kitobidan Ahmad Yassaviyning oltita hikmati izohlari bilan qilgan to’liq tarjimasi o’rin olgan (97 ta to’rtlik). Professor Shmidtga bag’ishlangan “Al-Iskandariya” nomli to’plamda esa Ahmad Yassaviy “Faqrnoma” si A.Garritskiy tomonidan qisqartirib tarjima qilingan. Muallif kirish so’zida Ahmad Yassaviy, hikmatlari va uning turkiy xalqlar tarixida tutgan o’rni haqida qisqacha to’xtalib o’tadi: “Bu hikmatlar hech shubhasiz xalqqa tushunarli bo’lgan sodda va oddiy tilda aytilgan bo’lib, Ahmad Yassaviyning shaxsiy hayot tajribalaridagi misollar bilan mustahkamlangan. Aks holda, Ahmad Yassaviy haqidagi xotira bu qadar uzoq vaqt

davomida saqlanib qolmagan, Temur tomonidan qurilgan muhtasham maqbara bugunga qadar son-sanoqsiz ziyoratchilar bilan to'lib-toshmagan, so'fiylikka doir hikmatlari ham xalq orasida bu darajada mashhur bo'lmagan bo'lar edi. Ahmad Yassaviy va izdoshlari o'z fikr-qarashlarini targ'ib etishda xalqqa yaqinlashishga harakat qilganliklarini ularga oid hikmatlar tilining soddaligidan ham yaqqol bilib olishimiz mumkin", - deb yozadi olim.

Ahmad Yassaviy mavzusi nafaqat rus, balki tatar olimlarini ham qiziqtirgan. Chunki Ahmad Yassaviy va Hakim ota fikr-qarashlari tatar tili va adabiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Tatar adibi A.Sardor maqolasida Ahmad Yassaviy maqbarasi, undagi yozuvlar, shuningdek, ulug' shayxning hayot yo'li va hikmatlariga doir qisqacha ma'lumotlar berilgan. Muallif "Devoni hikmat" turkiy til mavqeyini ko'tarishdagi xizmatlarini qayd etar ekan, XV asrning birinchi yarmida yozilgan "Baxtiyornoma", "Tazkirat ul- avliyo" kabi asarlarga "Devoni hikmat" va Sulaymon Boqirg'oniy asarlarining ta'siri bo'lganligini yozadi. Sa'diy ham Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar adabiyotidagi tutgan o'rnini yetarlicha baholaydi va uni "umumturk shoiri...turk shoirlarining dohiylaridan" biri hisoblaydi. Yassaviy hikmatlariga baho berar ekan, olim: "Yassaviy uslubidagi ochiqlik, soddalik, yengillik, ohang, tabiiylik, go'zallik va tasviriylikka hayron qolmay mumkin emas", - deydi. Biroq olim Ahmad Yassaviy asos solgan tariqat va uning ta'lim-tarbiya usuli haqida gapirmaydi. Buning ustiga, maqolaning hayajon bilan yozilganligi seziladi. Muallif asosan, Yassaviy to'rtliklarining mazmunini ochib berish bilan birga, hikmatlarning tatar tili va adabiyotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritmoqchi bo'ladi.

Fitratning ilk mutasavviflar mavzusiga murojaat etishining boisi 1910-yilda Buxoroda "shia" lar bilan "sunniiy" mazhabidagilar o'rtasidagi, "jadid" va "qadimchi" lar o'rtasidagi kurashlar avj olgan edi. Ayni shu davrda o'zaro ichki nizolarni "oradan ko'tarmoq" uchun o'zining najib millatdoshlariga dav'at etib,

ularga shariatdan, tariqatdan gapirib, musulmonlarni o`zaro boittifoq yashashga chaqirgan.

“Ahmad Yassaviy” maqolasidan ma’lum bo’lishicha, Abdurauf Fitrat tasavvuf ta’limoti va uning tarixi, Yassaviy yashagan davr, ijtimoiy va ma’naviy muhit, ulug` pirning hayot yo’li, oilasi, bolalik yillari, ilm tahsili, yassaviylik tariqatiga asos solishi, “Devoni hikmat” asarining yozilish tarixi, undagi hikmatlarning ma’no-mazmuni, adabiy qiymati, yassaviylikning ta’siri, mafkurasi, Ahmad Yassaviyda tasavvuf darajasi kabi masalalarni chuqur va izchil o`rganib chiqqan va bular to`g`risida yangi fikr-mulohazalarini bayon etgan. Fitrat maqolani tasavvufga doir umumiy bir qarash bilan boshlar ekan, olim tasavvuf maslagining yuzaga kelishini mustamlakachilarning mahkum xalqqa qilgan adolatsizliklaridan kelib chiqqan “aksi ta’sir” bilan bog`laydi: “... mustamlaka xalqi so`ng darajada ezilg`an edi. Mana shu ezilishdan tug`ulg`an umumiy noroziliklar islomning to burung`i zamonlaridan boshlab turli siyosiy, diniy oqimlarga, muxolifatlarga yo`l ochib, shunlarning kengayishiga sabab bo`lgan”. Fitratning ushbu qarashlarini to`ldirgan holda olim M.A Jo`shonning “Tasavvuf va nafs tarbiyasi” da berilgan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “tasavvuf, o`tmishdagi din va e`tiqodlarga mansub toifalar orasida ham ularning dinlariga bog`liq holda mavjud edi”. Fitrat Turkistonda tasavvuf ta’limotining paydo bo’lish sabablarini arab istilosi davrida islom nomidan qilingan zo`ravonliklar, bundan jabr tortgan mahalliy aholining noroziliklari in’kosi sifatida talqin qilgan. Shunga yaqin fikrlarning bugungi tasavvuf tadqiqotchilari tomonidan e’tirof etilayotgani Fitrat qarashlarining eskirmaganligini tasdiqlaydi. Maqolada Fitrat ta’kidlaganidek, gap islom tasavvufi to`g`risida ketadigan bo`lsa, ko`pchilik mutasavvuf olimlarning fikricha, islomiy tasavvuf Qur’on va sunnatdan kelib chiqqan ta’limotdir. U saodat davrida ham “hol ilmi” o`laroq payg`ambar alayhissalom va sahobalar orasida mavjud bo`lgan. Dastlab zuhd davrini yashagan tasavvuf asta-sekin ilk so`fiylar vositasida mustaqil oqim sifatida shakllangan va natijada Islom mamlakatlarida birin-ketin birinchi tariqatlar vujudga kela boshladi. Islomiy bilimlar qatori, tasavvuf ilmi ham tarixiy

jarayon sifatida shakllandi, bir tizimga solinib jamlandi. Tasavvufning amaliy ko`rinishi sifatida shakllangan tariqatlar har bir hududning o`rni va ijtimoiy shart-sharoiti, an`ana va urf-odatlariga ko`ra moslasha borgan. Xuddi shu tariqa Ahmad Yassaviy ham o`z yurtida, turkiy xalqlar orasida birinchi bo`lib yassaviylik tariqatiga asos soldi.

Fitratning mazkur maqolalarini tadqiq etgan U.Jo`raqulov ham olimning yuqoridaga fikrlariga qo`shimcha qiladi: “Bunga (Fitratning fikriga) qo`shimcha qilib shuni aytish mumkinki, tasavvuf nafaqat din nomidan qilingan adolatsizliklar natijasida, balki Allohga va uning rasuliga bo`lgan chuqur muhabbat tufayli ham paydo bo`ldi, rivojlandi”.

Fitrat tasavvuf maslagining kelib chiqishi to`g`risida to`xtalar ekan: “tasavvufning yuqori pog`onalarida, diniy taassubg`a, ding`a, shariatg`a qarshu unsurlarning borlig`i aniqdir”, - deb, tasavvufga kirgan muridning birinchi bosqichda shariatga amal qilishini, tasavvufdagi bosqichlardan yuqori chiqqan sari esa, islomiy asoslardan uzoqlasha borib, uning nazarida din, shariat, ibodatning ahamiyati qolmasligini yozadi. Bundan ko`rinadiki, olim Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj kabi mashhur mutasavvuflarning vajd va sakr holidan aytgan hayajonli so`zlaridan kelib chiqib shunday mulohazalarni bildirgan. Lekin shuni ham aytish kerakki, tasavvuf ta`limotida bu maslakka yangi kirgan kishilarga birinchi bosqichda islomning amrlariga tamoman itoat etib, yuqori bosqichlarga ko`tarilgan sayin islomiy asoslardan uzoqlashib borishi shart qo`yilmagan. Balki, tasavvufda yuqori bosqichlarga erishmoq uchun murid shariat, tariqat, ma`rifat, haqiqat darajalariga bosqichma-bosqich ko`tarilishi shart bo`lgan.

Fitrat Ahmad Yassaviyning tavalludi va vafoti bilan bog`liq fikrlarni bayon etar ekan, yassaviyshunoslikdagi ba`zi bahsli qarashlar yuzasidan ham o`z mulohazalarini bildirgan. Yassaviyning tavalud yili to`g`risida, bugungacha ham bir to`xtamga kelingan emas. Bu xususda, turli tadqiqotlarda turlicha fikrlar o`rtaga tashlangan. Fitrat Yassaviyning:

To`rt yuz yildan keyin chiqib, ummat bo`lg`oy

misrasiga asoslanib, uni hijriy beshinchi asrning ikkinchi yarmida tug`ilgan deb aytadi. Bu taxmin haqiqatga yaqinroq, shuning uchun shoirning tug`ilgan yili to`g`risidagi haqiqatni shu misradan izlasa, o`rinli bo`lar. Ahmad Yassaviyning tug`ilgan shahri xususida “bir rivoyatga ko`ra Yassi (bugungi Turkiston) shahrida, bir rivoyatga ko`ra, Sayramda tug`ulg`on” desa, tavallud sanasi haqida “har holda uning hijriy to`rtinchi asrning ikkinchi yarmida tug`ulg`onig`a hukm qilish mumkindir” degan xulosani bildiradi. Qadimiy manbalarga ham murojaat etadigan bo`lsak, yassaviyshunoslikdagi birlamchi manba sanalgan “Javohir ul- abror” muallifi Xaziniy Ahmad Yasaviyning Sayramda tug`ilganligini qayd etadi. F.Ko`pruli ham mazkur asarga suyangan holda Yasaviyning tavallud joyini Sayram deydi va bunga boshqa dalillar ham keltiradi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Yassaviy hayoti bilan maxsus shug`ullangan Ko`pruli va bir qator o`zbek olimlarimiz ham Yassaviyning Sayramda tug`ilganligini tasdiqlaydilar.

Shuningdek, Fitrat ulug` shayxning necha yoshda vafot etgani xususida taxminga berilmasdan, chillaxonada ham shayxlik faoliyatini davom ettirganligini qayd etadi. Imom Sig`noqiy risolasida va Xaziniyning yana bir muhim asari “Jomi ul-murshidin” da Ahmad Yassaviyning oltmish uch yoshdan keyin yer ostida yana shuncha yil umr kechirganligi” aytilganki, bu to`g`rida Fitratning Yassaviyga doir manbalarni izchil o`rganligini sezish mumkin.

Fitratning Yassaviylik tariqatining tarixiy shakllanish va tarqalish jarayonlariga doir kuzatishlari ham diqqatga sazovordir. Olimning yozishicha, yassaviylik qadimgi turk urf-odatlariga yot kelmagani bois ko`chmanchi turkiylar orasida tez tarqalgan. Temuriylar zamonidagi “tariqat kurashi” da yassaviylar birmuncha vaqt muvaffaqiyat qozonmagan bo`lsa-larda, shayboniylar davriga kelib mavqelarini qayta tikladilar, hatto Naqshbandiy shayxi Mahdumi A`zamning jahriy zikrni qabul qilishi natijasida “O`rta Osiyoda yassaviylik g`alaba” qozonadi.

Fitrat hikmatlarning adabiy qimmatini haqida gapirar ekan, Yassaviyning irfoniy va adabiy darajasini yuqori qo'yadi, uning oddiy xalq shoirlaridan baland saviyada bo'lganini, Xuroson, Iroq va Shom kabi o'sha zamonning mashhur ilmiy markazlariga ham borib turganini, o'z zamonida mo'tabar sanalgan ilmlarni, adabiyot qoidalaridan yaxshigina xabardor ekanligini e'tirof etadi.

Fitrat "Sarf", "Aruz haqida", "Adabiyot qoidalarini" kitoblari ham turli munosabatlar bilan Ahmad Yassaviy ijodiyotiga doir o'z qarashlarini bildirgan. O'zi tuzgan "O'zbek adabiyoti namunalari" da esa Yassaviy hikmatlaridan parchalar keltirgan. Fitrat "Ahmad Yassaviy" maqolasida va "Adabiyot qoidalarini" kitobida Ahmad Yassaviyning xalq orasidan chiqqan, xalq dardini kuylagan, samimiyligni sevuvchi elga qaratib yozgan shoir sifatida e'tirof etadi. Adabiyot qoidalariga bag'ishlangan kitobining qatorda barmoq vazniga doir bobida xalq maqollari va ashulalari bilan bir qatorda, Ahmad Yassaviyning:

So'zum qattig', tilim achchig', o'zim zolim,

G'arib jonim sarf aylayin, yo'qdur molim

kabi baytini misol tariqasida keltiradi.

Ahmad Yassaviy xalq dardini xalqona uslub va ravon tilda ifodalagan so'fiy shoir ham bo'lgan. Ahmad Yassaviy hayoti va she'riyati bilan shug'ullagan olimlar hikmatlarning xalqchilligi va xalqona uslubda yozilganligini ta'kidlaganlar. Hatto Sho'ro hukumati davridayoq hikmatlarning xalqona she'riy shaklda yozilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etishi Moskvada chiqqan qomusda ham alohida qayd etilgan.

Tadqiqotda "...o'tgan shoirlar, adiblar, so'filar orasida Yassaviy qadar o'z ta'sirini kengaytgan bir kishini uchratib bo'lmaydi", - degan e'tirof keltiriladi. O'rta Osiyoning shayxlari, eshonlari Yassaviyni o'ziga pir, ustoz deb bilganlar. Fitratning ta'biricha: "Yassaviydan keyin uning uslubida she'r yozmoq turk shayxlari orasida "mo'da" shakliga kirgan. Bular uslub, vazn, mafkura yog'idan Yassaviyni aynan taqlid qilib "hikmat" lar yozg'an va bu hikmatlarni machitlarda

“jahr” kunlarida o`qutg`anlar”. “Jahr” so`zining lug`aviy ma`nosi “oshkora”, “ovoz chiqarmoq” bo`lib, zikr tushish jarayonida oshkora, baland ovozda Allohning nomi tilga olinadi va turli harakatlar bilan qalb tozalanadi.

Maqolada Yassaviy ta`siri ostida bo`lgan (o`zbek, ozarbayjon, tatar) shoirlaridan o`ttizdan ortig`i haqida u yoki bu darajada ma`lumotlar beriladi. Ozar mutasavvuf shoiri Said E`mod, Nasimiy, turkman shoiri Maxtumlulining Yassaviydan ta`sirlanganliklari ta`kidlanadi. Bu Fitratning adabiy ta`sir masalalarini ham chuqur o`rganganini, to`g`ri talqin qilganligidan dalolat beradi. Ammo Fitrat Yassaviy ijodining tahlilida ba`zan xolislik, ba`zida esa tanqidiy fikrlarni ham uchratamiz.

Til va ifodadagi ayrim o`zgarishlarga qaramasdan, “Devoni hikmat” o`zining asl ma`no- mohiyatini saqlab qolganligi tufayli boshqa ko`plab ijodkorlarni hikmat yozishga ilhomlantirib kelgan. Ma`lumki, “Devoni hikmat” ni Yassaviy muxlislari jamlab, devon holiga keltirganlar. Hikmatnavislik yo`lini davom ettirish va keyingi avlodlarga yetkazish maqsadida bu majmualarga boshqa yassaviya shoirlarining she`rlari ham kiritilgan. Shu tarzda Ahmad Yassaviyga ergashib she`rlar yozish qutlug` bir an`anaga aylangan.

Fitratning “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risida tekshirishlar” nomli ikkinchi maqolasi ham yassaviyshunoslikda alohida ahamiyatga ega bir tadqiqotdir. Olim bu maqolasini O`rta Osiyo turkiy adabiyotining so`nggi maktablari orasida Yassaviy maktabi juda nufuzli, katta o`rin tutib kelganligini, bu maktab asrlar mobaynida turkiy xalqlar orasida “xonaqoh -ibodat adabiyoti” sifatida rivoj topib, davom etganligini qayd etish bilan boshlaydi. Fitratning fikricha, o`zbek mumtoz adabiyoti tarixida uchta adabiy maktab faoliyat ko`rsatgan bo`lib, ularning birinchisi Ahmad Yassaviy, ikkinchisi Alisher Navoiy va uchinchisi Amir Umarxon adabiy maktablaridir. Yassaviy maktabining yuqoridagi maktablardan asosiy farqi, uning xonaqoh, ya`ni “ibodat adabiyoti” bo`lganligidir.

Fitrat Yassaviy va uning maktabi shoirlari to'g'risida maqolalar e'lon qilgunga qadar tasavvuf tarixi va nazariyasini ancha chuqur ishlagan. Uning o'zi bu haqda adibni "panturkist" va "panislomist" likda ayblagan J.Boybo'latovga qarshi yozgan maktubida Yassaviy ijodiga qo'l urishining sababini izohlarkan: "Adabiyot tarixini tekshiruvchi bir muallim bo'lganim sifati bilan tasavvufni ko'p tekshirdim. Bu kun tasavvufning har tomonini, qorong'i sirlarini bilaman. Hatto shu kunlarda O'rta osiyoda tasavvuf tarixi ismli bir kitob vujudga keltirmak uchun tirishmakdaman", - deb yozgandi. Bunga qo'shimcha tarzda shuni aytish lozimki, 20-yillarning boshlarida olim adabiyot tarixchisi sifatida "Yassaviy davri" deb qaralgan X-XII asrlar adabiyoti bilan jiddiy shug'ullangan, somoniylar, qo'arxoniylar va g'aznaviylar kabi ilk turk davlatlarida e'tibor topgan Mahmud Qoshg'ariy, Adib Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib haqida o'zbek adabiyotshunoslari ichida birinchilardan bo'lib maqola e'lon qilgandi. Bu maqolalarda ilk turk dostonchilarining asarlari tahlil etilar ekan, ularda tasavvufiy holatlarni ham qayd etgan. Shu bilan birga o'zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk majmua sanalgan "O'zbek adabiyoti namunalari" ning katta bir qismini ilk turk mutasavvuflari Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy asarlari bilan ziynatlangan.

Fitrat birinchi maqolasida Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida umumiy fikrlar bilan chegaralangan bo'lsa, keyingi tadqiqotida ularning hayoti va ijodiga kengroq to'xtaladi. Shuningdek, "Rashahot ayn ul-hayot", "Lamahot min nafahot ul-quds", "Samarat ul-mashoyix" kabi birlamchi manbalarga tayangan holda Yassaviy izdoshlarini sanab o'tadi. U "Yassaviylarning O'rta Osiyoda bir ko'p shoirlar yetishtirganini qabul etmak judayam yanglish bir harakat bo'lmasa kerak" der ekan, "Yassaviy asarlari bo'lsun, o'zlari bo'lsun haligacha tamoman ma'lum bo'lmag'an, tekshirilmag'an" ligini yozadi.

Haqiqatan ham, ba'zi tadqiqotlarni hisobga olmaganda, Yassaviy maktabi shoirlarining hayot yo'li va adabiy merosi bugunga qadar maxsus o'rganilmagan

mavzularandir. Bu jihatdan Fitratning mazkur tadqiqoti, keyingi ishlar uchun yoʻl koʻsatuvchi mayoq vazifasini oʻtashi, shubhasizdir. Sababi, olim ushbu maqolasida Hakim ota Sulaymon Boqirgʻoniy, Kamol Shayx Iqoniy, Shams Oʻzgandiy, Qul Ubaydiy, Shayx Xudoydod, Hubbi Xoja kabi Yassaviy izdoshlari haqida manbalar asosida izchil maʼlumotlarni taqdim etadi. “Devoni hikmat” toʻplamlarida Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan bir qatorda, oʻnlab izdoshlarining sheʼrlari ham oʻrin olgan. Turli toʻplam, majmua va bayozlarda Yassaviy izdoshlarining diniy-didaktik mazmundagi koʻplab sheʼriy qissa, hikoyat, doston, jangnoma, vafotnoma va meʼrojnomaalarini uchratishimiz mumkin.

Fitrat maqolada Yassaviy maktabi shoirlari haqida fikr yuritib, Ahmad Yassaviyning shogirdi va muridi boʻlgan Hakim Sulaymon ota haqida toʻxtaladi: “Hakim Sulaymon ota Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi boʻlub, uning koʻrsatishi bilan Xorazmga borib shayxlik qilgʻan. Milodiy 1186 da (piridan yigirma yil soʻngra) vafot etgan. Qabri Xorazmda Boqirgʻon degan joyda...”. Shuningdek, Fitrat 1906-yilda Boqirgʻon hikmatlari “Boqirgʻon kitobi” nomi bilan Qozonda bosilgan nusxadagi sheʼrlarda Hakim Sulaymon otaning 36 parcha sheʼri, hammasi boʻlib 1180 misra borligini aytib oʻtadi.

Shu oʻrinda Fitrat bir qancha yassaviy maktabi shoirlari nomini keltiradi. Ular haqida kengroq maʼlumot berishga urinadi. Iqoniy taxallusi bilan ijod qilgan yassaviy maktabi shoiri haqida quyidagilarni keltiradi: “taxallusidan uning Fargʻonadagi Iqondan ekani onglashiladir. Yassaviy shoirlari orasida mashhur Mahdud Shayxning muridi Kamol Shayx degan odam bor. “Rashahot” bilan birga butun manoqib kitoblari bu Kamol Shayxning Xoja Ahmad bilan suhbat qilgʻanin xabar bermakdalar”. “Samarat ul-mashoyix” asari muallifi ham uning nufuzli shayx bolganini, “Ikkinchi Ahmad Yassaviy” nomi bilan atalganini qayd etadi. Iqoniyning hijriy 835 dan soʻngra Toshkentda boʻlganini, undan keyin Samarqandga koʻchib, shu yerda vafot qilgani ham ushbu asarda keltirigan.

Fitrat Shams nomi bilan ijod etgan shoir haqida: “Boqirg`on kitobidagi hikmatlarda buning ko`proq Shams, bir o`rinda Shamsiddin, bir ikki o`rindag`ina Shams O`zgandiy taxallus qo`yg`anini ko`ramiz”, - deydi. Yuqoridagi manbada aytilishicha, Kamol Shayx Iqoniyning Sayid Ahmad degan bir muridi bo`lib, yigitlik chog`larida Xoja Ahror bilan suhbatlari bo`lgan. Mana shu Sayid Ahmad Shayxning muridlaridan biri Mavlono Shams O`zgandiydir.

Qul Ubaydiy haqida to`xtalib: “Ubaydiy, Ubaydulloh, Qul Ubaydiy taxalluslari bilan hikmatlar yozgan bu odam, bizning fikrimizcha, mashhur o`zbek xoni Ubaydulloh (xon) dan boshqa kishi emas”. “Samarat ul -mashoyix” da yozilishicha, Ubaydulloxonning tariqat nisbati Avliyo Qoraxon otli bir shayx vositasi bilan Hakim Sulaymon otag`a boradir. Fitrat Ubaydulloxonning Yassaviy tariqati bilan juda qattiq bog`langaniga dalil sifatida yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadiyor No`g`ay otag`a o`z qizini berganligini keltiradi. Ubaydulloxon ham mutasavvuf shoir bo`lib, uning forsiycha yaxshi she`rlar yozganini “Muzakkir ul-ahbob”, “Majma ul-fusaho”, “Tazkirat us-salotin” kabi manbalar ham keng suratda namoyon etadi. Shuningdek, Fitrat shaxsiy kutubxonasida Qul Ubaydiyning mashhur mutasavvuf Mahdumi A`zam nomidan tasavvuf uslubida sharh qilingan forsiycha bir g`azali borligini qayd etgan. Uning forsiycha she`rlarida ko`proq Ubaydiy taxallusi qo`llaganini aytib, o`zbekcha she`rlar yozgani to`g`risida Buxoroda topilgan “Devon” i uning Navoiy maktabiga ergashib turkiy g`azallar, Yassaviy maktabiga ergashib hikmatlar yozganini isbot etgani haqida ma`lumot berilgan.

Yassaviy izdoshi Xudoydod to`g`risida: “yassaviy shayxlaridan bo`lib, Shayboniylar xong`a yordam qilmag`ani uchun Samarqanddan Hirotg`a haydalg`an Jamol Shayxning murididir, Yassaviylikning nufuzli shayxlaridan bo`lg`an Olim Shayx tomonidan yozilg`an “Lama`ot” kitobi muning manoqibidir”, - deyilgan. Taxallusi Xudoydod bo`lgan ushbu tasavvuf shoiri zullisonayn ijodkor bo`lib,

uning forsiycha she'rlarining bir qismi "Lama'ot" kitobiga, turkiy tildagi hikmatlari esa "Boqirg'on kitobi" ga kiritilgan.

Fitratning "Munozara" sida ham tilga olingan Qul Sharifning ayrim manbalarga asoslanib, Mavlono Sharif bo'lishi ehtimolini aytadi. Shu o'rinda olim: "Xubbiy Hakim otaning o'g'li Xubbi Xoja bo'lg'ani", "Mochinning Ahmad Yassaviy muridi Bobomochin", - ekanini ta'kidlab o'tadi. Bobomochin Ahmad Yassaviyning mashhur muridlaridan bo'lib, "Javohir al -abror" da yozilishicha, So'fi Muhammad Donishmand Zarnuqi, Sulaymon Hakim otadan so'nggi uchinchi xalifasi bo'lgan. F.Ko'prulining qayd etishicha, u Ahmad Yassaviy hazratlariga nihoyatda sodiq bo'lib, "Arbain" va "Hikmatlar" chiqarganini hamda uning oldiga uch marta xilvatga kirgan.

Toj – ayrim manbalarda Toj Xoja yoki Tojiddin Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi bo'lib, Mansur otaning nabirasi, Abdumalik otaning o'g'lidir. Fuod Ko'prulining ma'lumotiga qaraganda, u mashhur Zangi otaning otalaridir.

Mahdud Shayx – Xoja Ahmad Yassaviy silsilasidagi shayxlardan bo'lib, sulukda Zangi ota, Sadr ota va Shayx Alidan keyin keladi. Shuningdek, uning ikki xalifasi mashhur bo'lib, biri Kamol Shayx Iqoniy bo'lsa, ikkinchisi Xoja Ahmad bilan ko'p muloqotda bo'lgan Xodim Shayxdir. Fuod Ko'pruli va boshqa turk manbalarida "Mevdud Shayx Turkistonli" unvoni bilan tilga olingani qayd etilgan.

Nasimiy haqida Fitrat mashhur ozari (y) mutasavvuf shoiri Sayid Imod Nasimiydir ekanini ta'kidlaydi. U 1369-yilda Shamohi shahrida tug'ilgan. Tabrizli Fazlulloh Naimiy ta'sirida xurufiylikni qabul etgan, uning vasiyatiga ko'ra, Naimiyning kichik qiziga uylanadi va xurufiylik targ'ibotiga beriladi.

Fitrat ushbu maqolasi orqali "Boqirg'on kitobi" dagi hikmatlarning muallifi faqatgina Hakim Sulaymon ota emasligiga ishora qilib, unda Yassaviy tariqatiga mansub bir qancha mutasavvuf shoirlarning hikmatlari jamlangani haqidagi

ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur tadqiqot Yassaviy tariqati shayxlari xususida nodir ma'lumotlarni taqdim etgani bilan ham ahamiyatlidir.

Maqola Fitrat tilga olgan “bir-ikki gaplar” (ya’ni o’zidan avval yozilgan Ahmad Yassaviy mavzusidagi maqolalar) ga nisbatan qiyoslanadigan bo’lsa, Fitrat maqolalarida Ahmad Yassaviy va yassaviylikning ko’p jihatlarini namoyon etganligi ko’rinib turibdi. Fitrat mazkur maqolalarga to’xtalmasligi va ularga nisbatan tanqidiy mulohazalarni bildirishiga sabab, ularning ilmiy darajasi olimni qoniqtirmasligidandir. Shuning uchun ham u Yassaviy va yassaviylikka oid manbalarga murojaat etgan holda masalani keng qamrovda va jiddiy o’rganishga kirishadi. Fitratdan avvalgi tadqiqotchilar Ahmad Yassaviyga doir xalq rivoyatlari yoki muayyan asarlardagi ayrim ma'lumotlar bilan cheklangan bo’lsalar, Fitrat bevosita “Devoni hikmat” nusxalari, tasavvufga va yassaviylikka doir asarlarga suyangan holda o’z qarashlarini bayon etadi. Fitrat ushbu tadqiqoti bilan Yassaviy hikmatlarining mualliflik masalasini va boshqa yassaviyshunoslikka oid masalalarini ham hal qilishga uringan. Biroq, Yassaviy davriga doir manbalarning yo’qligi sababli mavjud fikr-mulohazalarni bildirish bilan cheklangan. Fitrat tadqiqotining avvalgi maqolalardan ahamiyati ham shunda.

Fuod Ko’prulining “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” risolasi bilan Turkiyada Yassaviyshunoslik faniga asos solgan bo’lsa, Abdurauf Fitrat ayni shu vazifani Vatanimizda ado etdi, desak haqiqatdir. Chunki, undan avval biror tadqiqotchi Ahmad Yassaviy mavzusini bu qadar keng va izchil o’rganmagan. Shuningdek, Yassaviy izdoshlarini alohida bir adabiy maktab sifatida ilmiy muomalaga olib kirmagan edi. Fitrat maqolalari o’z davrida bahs-munozaralarga, tanqidiy qarashlarga sabab bo’lgan bo’lsa-da, bugungi kunga qadar o’z ilmiy ahamiyatini yo’qotgani emas. Mana shu jihatlari bilan ham Fitrat tadqiqoti yassaviyshunoslikda o’ziga xos qimmatga ega.

Maqolada adabiy ta’sir masalalariga ham e’tibor qaratilganligini ko’rishimiz mumkin. Fitrat ta’kidlaganidek, Yassaviy hikmatlari tarzida she’r yozish undan

keyin o'zbek adabiyotida bir an'anaga aylangan va adabiy maktab shaklini olgan. Shuningdek, keyingi tadqiqotlar ham Yassaviy fikr-qarashlari turkiy xalqlar, xususan, tatar, tukman, ozarbayjon va usmonli turklarning nafaqat diniy-tasavvufiy adabiyotiga, qolaversa, turkiyzabon millatlarning ma'naviy, ma'daniy va ruhoniylar hayotiga ham kuchli ta'sir o'tkazganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Fitrat Yassaviy va yassaviylik mavzusidagi tadqiqotga astoydil tayyorgarlik ko'rganini sezish qiyin emas. U imkon qadar mavzuga doir, "Rashahot ayn ul-hayot", "Lamahot min nafahot ul-quds", "Samarat ul-mashoyix" kabi bir qator manbalarni chuqur tanishgan. Ular asosida o'zining qimmatli mulohazalarini keltirib o'tgan. "Devoni hikmat" ning qo'lyozma va toshbosma nusxalarini o'rganib chiqqan. Fuod Ko'prulining yassaviyshunoslikda muhim ahamiyatga ega "Turk adabiyotida ilk mutasavvufilar" risolasidan yaxshi xabardor bo'lgan. Demak, Fitratning Yassaviy va yassaviy maktabi shoirlariga doir mazkur maqolalari ulug' o'zbek olimi tomonidan XX asr boshida yaratilgan ilk tadqiqot sifatida o'z ahamiyatiga ega.

Xulosa.

Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixida XX asr adabiyoti alohida ahamiyatga ega. Milliy uyg'onish adabiyoti yoki jadid adabiyoti atamalari bilan tilga olinib kelayotgan bu davr, avvalo, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari o'lmas ijodkorlarning nomlari bilan bog'liq. Ana shu unutilmas siymolar orasida Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat qomusiy bilimi, adabiyot, san'at va ilm-fanning turli sohalarida chuqur iz qoldirganligi bilan ajralib turadi. Shoir, adib, dramaturg, muarrix, munaqqid, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, mutarjim, mutafakkir-faylasuf, jamoat arbobi, siyosatchi, pedagog- bir o'zida shuncha sifatlarni jam etgan Abdurauf Fitrat ma'daniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Istiqlol ibtidosida 1991-yilda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon bilan birga Fitarga ham mustaqil yurtimizning oily mukofoti – Alisher Navoiy nomidagi Davlat

mukofoti berildi. Mustaqillikka erishganimizdan so`ng fitratshunos olimlarimiz uning badiiy va ilmiy ijodini jiddiy va keng qamrovli tadqiq etishga kirishdilar. Fitratning qator ilmiy maqolalari, shuningdek, nasriy, she`riy va dramatik asarlari qaytadan chop etila boshlandi. 1996-yilda “Chin sevish” va 2000-yilda ikki tomlik keyinchalik besh tomlik tanlangan asarlari nashr etildi.

Abdurauf Fitrat 20-yillarda sharq xalqlarining madaniy merosi va adabiyotini o`rganishga katta hissa qo`shdi. Fitratning Bartold, Samoylovich, Bertelslar singari akademik yo`nalishdagi yirik qomusiy olim ekanligini fitratshunos olimlar ta`kidlab keladilar. U xalq badiiy merosiga ilmiy nuqtai nazardan yondoshib, A.Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Umar Xayyom, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Boborahim Mashrab, Turdi, Nodira, Muqimiy, Furqat singari ijodkorlar merosini yig`ish, tartibga solish, tadqiq etish ishlarida jonbozlik ko`rsatdi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda tahlilga tortilgan Fitrat maqolalari bugungi adabiyoshunosligimiz rivojida salmoqli o`ringa ega. Olimning ushbu tadqiqotlari XI– XIII asrlar davomida yaratilgan turkiy xalqlar adabiyotining nodir namunalari tadqiqiga bag`ishlanadi. Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg`u bilig” asarining uchinchi qo`lyozma nusxasining topilishi va ilmiy o`rganilishi Abdurauf Fitrat nomi bilan bog`liq. “ Qutadg`u bilig” masnaviy (ikkilik tizim) shakilda yozilgan bo`lsa-da, unda Fitrat ta`kidlaganidek, to`rtliklar (ruboiylar) ham uchraydi. Olim qo`lidagi nusxada ruboiylarga alohida e`tibor qaratilib, ular oltin suvi bilan yozilgan. Fitrat mulohazalariga ko`ra, to`rtliklar mashhur “Shohnoma” vaznidadir, asar “tarixan tilimiz jihatidan juda muhim, juda foydali kitob” dir. Shuningdek, Fitrat “Qutadg`u bilig” ni bor nusxalari bilan solishtirib, kamchiliklarini to`ldirish, uzilgan qismlarini tuzatish, izohlar bilan chop etish niyatida bo`lgan.

“Hibbatul haqoyiq” asariga oid tadqiqotida muallifning tug`ilgan joyiga, hayotiga oid ma`lumotlar, Adib Ahmadga berilgan ta`riflar xususida to`xtalib, o`z mulohazalarini ham aniq dalillar asosida keltirib o`tadi. Asarning turk olimi Najib

Osimbek tomonidan chop etilgan nashridagi kamchiliklarni izohlab o`radi va Najib Osimbek “Hibbatul haqoyiq” dagi so`zlarni izohlashda o`sha zamon manbalari uchun nihoyatda ishonchli bo`lgan “Devoni lug`otit- turk” dan foydalanmaganligini afsus bilan ta`kidlab o`radi. Yanglish o`rinlarga aniq misollar yordamida izohlar berib o`radi. Asarning tili, yozilish uslubi, adabiy qimmatini xususida mulohazalarini bildirib, mazmun va mundarija nuqtayi nazaridan tahlil etadi.

Fitratning “Ahmad Yassaviy” va “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risida tekshirishlar” maqolalari tasavvufiy qarashlarga boy umumlashmalarga egaligi, ilmiy yondashuvlarning izchil tarzda yoritib borilishi jihatidan ahamiyatlidir. Jumladan, Fitratga qadar biror olim Ahmad Yassaviy mavzusini bu qadar keng miqyosda o`rganmagan, Yassaviy izdoshlarini alohida bir adabiy maktab sifatida ilmiy muomalaga olib kirmagan edi. Maqolada Fitrat Yassaviy izdoshlari va ularning ijod namunalarida Yassaviyning ta`sirini batafsil yoritishga harakat qiladi. “Boqirg`on kitobi” shoirlari to`g`risida tekshirishlarini boshqa muhim manbalar bilan o`zaro qiyoslaydi. Fitratning ushbu tadqiqoti o`z davrida bahs-munozaralarga sabab bo`lganiga qaramay, bugun ham o`z ilmiy ahamiyatini yo`qotgani yo`q. “Devoni hikmat” turkiy adabiyotning noyob yodgorliklaridan bo`lib, muallifning islom dini, kalom falsafasi va tasavvuf bilan emas, balki o`sha davr ijtimoiy tartiblari, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlarning hayotini juda yaxshi bilganligida dalolat beradi. Shu jihatlari bilan bir qatorda tadqiqot yassaviyshunoslikda o`ziga xos qimmatga ega.

Qadimgi turk adabiyotiga oid ushbu tadqiqotlar olimning samarali mehnati mahsulidir. Fitrat har bir tadqiqotni yaratishga katta tayyorgarlik ko`rgani uning fikrlaridan anglashiladi. U imkon doirasida mavzuga doir bir qator manbalar bilan chuqur tanishgan. Ular asosida o`zining qimmatli fikr- mulohazalarini bildirgan. Bu yirik tadqiqotlar qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirishda, bu davrga oid lug`atlar tuzishda, ularni qayta nashr etishda, Yusuf Xos Hojib, Adib Ahmad

Yugnakiy va Ahmad Yassaviy tarjimai holini yozishda va shu kabi ko`plab masalalarni hal qilishda katta ahamiyatga kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.-352 б.
2. Каримов И.А. Ватан саждагох каби мукаддасдир.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.- 368 б.
3. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997.- 384 б.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Тошкент: “Шарқ” нашриёти- матбаа контсерни бош тахририяти, 1998. -32 б.
5. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.- Баркамол авлод орзуси.- Тошкент: “Шарқ” нашриёти матбаа контсерни бош тахририяти, 1999.- 181 б.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент : “Маънавият”, 2009.- 176 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. -Тошкент : “Ўзбекистон”, 2017.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Monografiya, risola va o`quv qo`llanmalar

8. Болтабоев Ҳ. Фитрат адабиётшунос. -Тошкент: “Ёзувчи”, 1996.
9. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадиличилик. -Тошкент : Миллий кутубхона, 2007.
10. Болтабоев Ҳ. Фитратнинг илмий мероси. Тошкент: “Фан”,1996.
11. Фитрат А. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: “Маънавият ”.2000.
12. Ҳаққул И. // Ҳақиқат йўли...//Тасаввуф ва шеърят.- Тошкент: Ғафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991.
13. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари.- Бухоро: Бух ДУ нашриёти, 2000.
14. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур.- Тошкент: “Шарқ”, 2007.

15. Ҳомиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари.- Тошкент: “Шарқ”,2009.
16. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари -Тошкент : “Ўзбекистон”, 2008.
17. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.- 112 б.
18. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда “ Ўзбекистон ” нашриётлари, 2009.
19. Комилов Н. Тасаввуф ва комил инсон ахлоқи. Тошкент.1996.
20. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент : “Маънавият”. 2004.Б. 227.
21. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.- Тошкент: “Ўзбекистон”.-1993.
22. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Маънавият – комиллик саодати.Тошкент: “Маънавият ”. 1997.
23. Воҳидов Р., Маҳмудов М. Иймон-қалб гавҳари.Тошкент: “Маънавият ”. 1998.
24. Ўзбек адабий танқиди. Бахтиёр Назаров ва бошқалар.- Тошкент: “Тафаккур қаноти”. 2012.
25. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳ.Болтабоев талқинида. Тошкент “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
26. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. -Тошкент : “Маънавият”,2002.

2. Ilmiy maqolalar

27. Алиев А. Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат. Тошкент, 1991.
28. Алиев С. Фитрат ҳақида хотиралар // Бухоро ҳақиқати. 1989 йил 5 октябр.
29. Амонова З. Фитрат “Яссавийлик мактаби ҳақида”//Истиқлол ва Фитрат[Илмий-амалий анжуман материаллари]. Бухоро. 2017.
30. Афоқова Н. Фитрат адабий оламига кириш // Маҳорат кўзгуси. 2005.№2.

31. Болтабоев Ҳ. Хорижда фитратшунослик. ЎзАС.1992 йил 27 март.
32. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва XX аср бошлари адабиётшунослиги. Шарк юлдузи.1995. № 11.
33. Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилиқ маҳорати // ЎТА.1996.№6.
34. Каримов Е. Фитрат ҳаёти ва ижоди ҳақида // ЎТА.1990.№3-Б.26-29.
35. Каримов Н. Қутадғу билиғнинг топилиши. Фан ва турмуш.1993.№2.
36. Миллий уйғониш. Мақолалар тўп.//Мас. муҳар. И.Қўчқортөев, Б.Қосимов. -Тошкент, Университет.1993,-127 б.
37. Сафаров О., Муродов Ғ. Фитрат [ҳаёт ва ижод саҳифалари] // Бухоро ҳақиқати.1989 йил 19 май
38. Турдиев Ш. Фитрат ва адабий алоқалар //ЎТА.1996.34.-Б.10-15.
- 39.Қосимов Б. Фитрат // Санъат. 1991№12.Б.10-13.
- 40.Қулжонов А.Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат // Гулистон.1996 №4.Б.30-38.
41. Ҳасанов Н. Яссавий ва Фитрат //ЎТА.2008.№3.
42. Ҳасанов Н. Аҳмад Яссавий [Хориждаги нашрлар] // ЎТА.1997.№5.
43. Ҳасанов Н. Аҳмад Яссавий манқабаси ва унинг муаллифи ҳақида // ЎТА.1999.№4.
44. Ҳасанов Н. Аҳмад Яссавий ва Фитрат // ЎТА.2008.№3
45. Ҳасанов Н. Аҳмад Яссавий ҳикматларининг тили ҳақида // ЎТА.2013.№4.
46. Ҳайитметов А.Ўзбек адабиётида халқчиллик ва халқчил услуб ҳақида // ЎТА.1993.№3.
47. Ҳомидий Ҳ. Аҳмад Яссавий // Ишонч. 2004 май.

3. Dissertatsiya va avtoreferatlar

48. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси.Фил.фан. докт...дисс.Тошкент.1996.

4. Lug`atlar

- 49.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. -Тошкент : “Фан”, 1983.-656 б.

50. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-том.
-Тошкент : “Фан”, 1983.-644 б.

51. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.-Тошкент. 2005.

52. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Тошкент.2007.

5. Badiiy adabiyotlar

53. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт
ва санъат нашриёти, 1991 й., 255 б.

III. Internet saytlari

54. [www. ziyouz](http://www.ziyouz)

55. www.kitob.uz

56. www.ijod.uz

Mundarija

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi..... 2

I BOB. Abdurauf Fitrat – mumtoz adabiyotning zarif tadqiqotchisi..... 10

1.1. Abdurauf Fitratning hayot va faoliyat yo`li..... 10

1.2. “Qutadg`u bilig” – Fitrat talqinida.....	17
1.3. “Hibbatul haqoyiq” – Abdurauf Fitrat nigohida	24

II BOB. Abdurauf Fitrat tadqiqotlarida XIII asr adabiyotiga munosabat

35

2.1. Tasavvuf va Ahmad Yassaviy ijodi haqida	35
2.2. “Yassaviy maktabi shoirlari to`g`risida tekshirishlar” maqolasi tahlili.....	41

XULOSA.....

56

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

59